

**K.M.Mavlonova, R.A.Yo‘ldoshev, N.S.Xakimova**

# **MATN TUZILISHIGA DOIR QOIDALAR**

**(5-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv-metodik qo‘llanma)**

**“Nodirabegim” nashriyoti  
Toshkent – 2021**

**KBK: 74.268.1**

**M 13**

**UO'K: 373:821.512.133(072)**

**ISBN 978-9943-7187-6-0**

Mavlonova K.M., Yo'ldoshev R.A., Xakimova N.S.

Matn tuzilishiga doir qoidalar [Matn]: o'quv-metodik qo'llanma / K.M. Mavlonova, R.A. Yo'ldoshev, N.S. Xakimova. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 86 b.

Ushbu o'quv-metodik qo'llanma matnning tashkiliy-texnik jihatlari bilan bog'liq (matn tuzilishiga doir) qoidalar va ularni mustahkamlashga qaratilgan mashq turlaridan iborat.

O'quv qo'llanma ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

### **Mas'ul muharrir:**

**B.R.Mengliyev** – filologiya fanlari doktori, professor

### **Taqrizchilar:**

**G'.H.Hamroyev** – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Sh.I.Sodiqova** – Oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi

Ushbu o'quv-metodik qo'llanma Respublika ta'lim markazi qoshidagi Filologiya fanlari yo'nalishi bo'yicha Ilmiy-metodik kengashning 2021-yil 30-martdagi 1-sonli yig'ilishida respublika miqyosida ommalashtirish va nashr etishga tavsiya qilingan.

## KIRISH

Ona tili o‘qitilishining yanada samarador bo‘lishi uchun so‘z, so‘z shakllari, gap ustida olib borilayotgan metodik ishlar bog‘lanishli nutqqa qarab borishi, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Til hodisalari, asosan, bog‘lanishli nutq orqali namoyon bo‘ladi. Gap turlarini, gaplarning o‘zaro bog‘lanishini o‘rganish matn yaratish uchun poydevorni vujudga keltiradi, xolos. Lekin ushbu materiallar, ular bilan bog‘liq qoidalar matn tuzilishi orqali o‘rganilmas ekan, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘proq lingvistik kompetensiyani shakllantirish darajasida qolib ketaveradi: ta’lim mazmuniga matn tuzilishiga doir qoidalarni kiritish davr talabidir.

Agar o‘quvchilar yozgan insho, yaratgan matnning faqat imlo va tinish belgilariga oid xatolarini tekshirmsandan, mavzuning qay darajada ochilganini insho (yoki matn) oxirida qisqa taqriz ko‘rinishida yozib ko‘rsatish, ayrim jumlalarning g‘alizligi ostiga to‘lqinli chiziq chizib qo‘yish orqali belgilash bilan kifoyalanmasdan, ijodiy ishlardagi matniy xatolarga e’tibor berila boshlansa, matn sintaksisiga oid bilimlarga ehtiyoj tug‘iladi.

Bugungi kunda ayrim metodik adabiyotlarda matn tuzilishi, matniy xato turlari haqidagi ma’lumotlar qisman yoritila boshlandi: ular mavjud vaziyatni yaxshilash imkonini beradi.

## MATNNI TASHKILIY-TEXNIK JIHATDAN RASMIYLASHTIRISHGA DOIR QOIDALAR

### MATNDA GAPLARNING CHEGARASINI BELGILASH



**1-QOIDA.** Matnning birinchi gapi, har bir qismning birinchi gapi xatboshidan, har bir gap esa bosh harf bilan boshlanadi. Gap oxiriga tegishli tinish belgisi (nuqta, so‘roq yoki undov belgisi) qo‘yiladi. Ikkinci, uchinchi va keyingi gaplar ham bosh harf bilan boshlanadi.



**1. Quyidagi matnni o‘qing. Uning qismlari, birinchi gapi, har bir gapning birinchi so‘zi qanday boshlanganini, gap oxiriga qanday tinish belgisi qo‘yilganini izohlang.**

*Mana, Ko ‘kdehcha deb ataladigan sero ‘t, sersuv maydoncha. Bu yer betkay bo ‘lgani uchun ham saratonning jazirama issig ‘i unchalik qizdirmaydi. Ko ‘kdehchaning ko ‘kati Ko ‘ksoydan esgan nam shabadadan bahra olib, qulf urib o ‘sadi.*

*Xuddi cho ‘qqidan yumalagan toshday, shiddat bilan tushib kelgan Suvonjon Ko ‘kdehchaning o ‘rtasiga yetganda bazo ‘r o ‘zini to ‘xtatdi. Bosvoldining tilimiday taram-taram bo ‘lib, yon-yoqqa taralib ketgan daralarga alanglab qaradi... g ‘ira-shira qorong ‘ilikda past-baland butalar to ‘kilib-chaplashib ketgan siyoh dog ‘lariga o ‘xshaydi.*

(S.Anorboyev)

**2. Quyidagi matn qanday boshlanishi, gaplarning chegarasi qanday belgilanishi kerakligini aniqlang va ko‘chiring.**

*SHAXMAT: Bu oddiygina o ‘yin 64 katakda oqlar va qoralar g ‘alaba uchun kurashadilar shu kungacha millionlab o ‘yin o ‘ynalgan bo ‘lsa ham, biror marta ham bir-birini takrorlamagan*

*kimlardir o‘ylab topgan mana shu oddiygina o‘yin ham inson tasavvuri chegaralari kengligini, tafakkurning nimalarga qodir ekanligini yana bir bor namoyish etadi.*

(Sh.Abdullayev)

---

---

---

---

---

---

---

### **3. Matnni o‘qing, berilgan gapning mazmuniga ko‘ra tushib qolgan tinish belgilarini qo‘ying.**

#### **HARAKATDA BARAKAT**

Bir o‘rmonga o‘t ketibdi. Jonivorlarning bir qismi kuchlari yetgan narsa bilan suv tashib, o‘tni o‘chirmoqchi bo‘lishibdi □ Ikkinci qismi esa bundan hech narsa chiqmaydi deb, chetroqqa chiqib tomosha qilib turishibdi □

Bir chumoli o‘tni o‘chirish uchun hovuchida suv olib ketayotgan ekan. Buni ko‘rgan qarg‘a uning ustidan kulib debdi: “Mana shu suving bilan olovni o‘chiraman, deb o‘ylayapsanmi □”

Chumoli unga javob beribdi: “Bilaman, bu suv bilan o‘tni o‘chirib bo‘lmaydi. Lekin men bu harakatim bilan kim tomonda turganimni bilaman” □

### **4. Matnni o‘qing va gaplarning chegarasini aniqlab, kerakli tinish belgilarini qo‘ying.**

“Dunyodagi eng boy odamlar kim?” deb so‘rashsa, shubhasiz, “qandolatchi amakilar”, deb javob bergen bo‘lardim negaki, chupa-chups, shokolad, konfet, muzqaymoqni ko‘rganda ko‘zlaricha qo‘li beixtiyor cho‘ntagi tomon shoshadigan siz – bolalarni, bekorga shirinxo‘rlar, deb atashmaydi to‘g‘ri, shirinlik sizni benihoya shodlantirishi mumkin, ammo u tishlaringizning “birinchi raqamli

*dushmani” ekanini unutmang “Voy tishim”, degan dardli qo’shiq joningizga azob bermasligi uchun tishlarga g’amxo ‘rlik qilish kerak*  
*(“Gulxan” jurnalidan)*

## **5. Quyidagi she’riy parcha tarkibidan tushib qolgan tinish belgilariga o‘z o‘rnini topib olishiga yordam bering.**

*She’rim □ yana o‘zing yaxshisan,  
Boqqa kirsang, gullar sharmanda.  
Bir men emas, hayot shaxsisan,  
Jonom kabi yashaysan manda.*



*Yuragimning dardi – yaxshisan,  
Qilolmayman seni hech kanda!  
O’t bo‘lurmi ishq yo‘q tanda □  
Dardimsanki, she’rim yaxshisan □*



*(Usmon Nosir)*

## **MATN MAVZUSI**



**2-QOIDA.** Matnni nima haqda, qaysi jihatini aks ettirib yozish kerakligi mavzu sifatida ifodalanadi.

Mavzu so‘zidan keyin ikki nuqta qo‘yilib, qo‘shtirnoq ichida oxiriga nuqta qo‘ymasdan mavzu nomi joylashtiriladi, masalan: Mavzu: “Bir tomchi suv ham hayot manbai” kabi.

Mavzu so‘roq yoki undov gap bo‘lsa, yopiladigan qo‘shtirnoqdan oldin so‘roq yoki undov belgisi qo‘yiladi: “Kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?”, “Yolg‘onchilikdan saqlaning!” kabi.



## 6. Quyidagi matn mavzusiga e'tibor bering va uni ifodali o'qing.

Mavzu: “Bir tomchi suv”

*Nigora bir haftagina qishloqqa onasining oldiga borib keladigan bo'lib qoldi... Eri xizmat safarida. Uy yolg'iz qoldi. Poyezdga chiqib endi chamadonni o'rniga qo'yayotganida birdan bo'shashib ketdi. Tuvakdagi gulga suv quyish esidan chiqibdi-ku!*

*Bitta gul uchun orqaga qaytsinmi? Qaytardi ham, ammo poyezd joyidan qo'zg'alib, shitob bilan oldinga intilib ketyapti. To qishloqqa yetguncha ham shu gul uning xayolidan ketmadi. Nazarida sarg'ayib so'layotgandek, qurib-qovjiragan barglari deraza oldiga to'kilib yotgandek...*

*Nigora qaytayotganda qalin qor tushdi. Po'stiniga o'ranib poyezdga chiqdi-yu, vagon oynasidan oppoq dalalarni ma'yus tomosha qilib keldi. Nihoyat uyi ostonasiga ham yetdi. Qanday qilib eshikka kalit solganini, qanday qilib deraza oldiga kelib qolganini o'zi ham bilmasdi.*

*Tuvakdagi gul hamon yashnab turardi. Uning ko'm-ko'k barglari tagidan yana kurtakchalar bo'rtib qolibdi. Nigora ochilaman deb turgan g'unchaga engashib dimog'ini tegizdi. Biram xushbo'y, biram xushbo'y! U bir hafta suvsiz qolgan bu gulning avvalgidek yashnab turishiga hayron edi. Oftob deraza qirovini eritib, har kuni bir tomchidan tuvakka sachratganidan Nigora bexabar edi. Bir tomchi suvda qanchalar qudrat borligini u sira-sira xayoliga keltirolmasdi.*

(Said Ahmad)

### 1. Matn necha qismdan iborat? \_\_\_\_\_

**2. Matn mazmunini ketma-ketlikda so‘zlab berish uchun quyidagi rejaga asoslanish lozim, ularning ketma-ketligi qaytartibda bo‘lishi kerak deb hisoblaysiz?**



**Nigora ortga qayta olmadi.**

**Nigoraning qaytishi**

**Tuvakdagi gulning yashnab turishi**

**Nigoraning qishloqqa otlanishi**

**3. Matn g‘oyasi nechanchi qismda ochilgan? Fikringizni izohlang.**

---

---

---

---



**7. Quyidagi mavzular nima haqda, uning qaysi jihatini aks ettirib yozish kerakligini anglab, namunadagidek izohlang.**

**Namuna:**

*“Kitobdan yaxshiroq do ‘st yo ‘q jahonda” – kitob haqida, uning inson hayotida tutgan o‘rni to ‘g ‘risida.*

**“Vaqting ketdi – naqding ketdi”**

---

---

---

**“Kim bo‘lsam ekan?”**

---

---

---

## *“Suv nima uchun tejaladi?”*

---

---

---



### **8. Quyidagi matnni o‘qing.**

Bir ayol qo‘schnisiga dugonasidan arz qilib, uni yomonladi. Undan qanday o‘chini olishni so‘radi. Qo‘schnisi unga dugonasini kechirishni va unga yaxshilik qilishni maslahat berdi. Haligi ayolning bundayadolatsizlikdan jahli chiqib ketdi. Shunda qo‘schni ayol dedi:

– Sizga bir rivoyat aytib beraman, o‘zingiz xulosa chiqaring. Qadim zamonda bir ayol bo‘lgan ekan. U bir kuni tun zulmatidan yorug‘ bo‘lishni, ayozdan esa iliq bo‘lishni so‘rabdi. Lekin tabiat qonunlari o‘zgarmabdi. Shunda haligi ayolning jahli chiqib: “Endi men sening zulmatingni yoritish uchun chiroq, ayozingni ilitish uchun olov yoqmayman”, – debdi.

Buni eshitib turgan boyagi ayol kulib:

– Chiroq va olovni yoqsa, o‘zi uchun yoqadi-ku, zulmat va ayozga bundan nima naf? – debdi.  
– Unda siz nima uchun o‘sha ayolning ishini qilyapsiz? Atrofingizni befarqlik zulmati qoplaganda nima uchun mehr chirog‘ini yoqmaysiz, sizni o‘rab turgan odamlarning qalbini muz bosganda, nima uchun ularni muruvvat olovi bilan iltmaysiz?!

**Ushbu matn uchun berilgan uch mavzudan qay biri mos kelishini belgilang.**

- “Yaxshilikka yomonlik”
- “Zulmatning chirog‘i”
- “Zulmat va ayoz”

 9. Qaysi mavzularda matn yaratishni xohlaysiz?  
Marhamat, yozing.

---

---

---

---

 10. “Sevimli kitobim” mavzusida matn tuzing, matnning  
avval qoralamasini, so‘ng oxirgi ko‘rinishini yozing.  
Yaratgan matningizda quyidagi ma’lumotlarning  
mavjudligiga e’tibor bering.

- ✓ *kitob o‘qishning ahamiyati;*
- ✓ *siz sevgan kitobning muallifi va nomi;*
- ✓ *kitobning sizga yoqqan tomoni;*
- ✓ *kitobdan olgan xulosangiz.*

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

## SARLAVHA



**3-QOIDA.** Matn mavzusi sarlavha tarzida satr o‘rtasida yozilib, qo‘shtirnoq ichiga olinmaydi, ba’zan oxiriga nuqta qo‘yiladi: Bir tomchi suv. Aksariyat holatlarda sarlavhadan keyin nuqta qo‘yilmaydi.

Bosma manbalarda matnga sarlavha qo‘yilib, bosh harflar bilan yoziladi: **BIR TOMCHI SUV**.

Sarlavha narsa-buyum, ish-harakat, belgining holatini atash (atov gap tarzida nomlash) ma’nosida qisqa ta’riflanadi: “Ona mehri”, “Yurt ravnaqi yo‘lida” kabi.

“Men kecha kunni qanday o‘tkazdim?”, “Biz Vatanimizni sevamiz” kabi darak gaplar tipidagi mavzular ixchamlanib, sarlavhaga aylantiriladi: Kechagi kunim. Vatan sevgisi.

Sarlavhalar mavzu sifatida aynan ko‘rsatilishi ham mumkin. Bunda mavzu so‘zidan keyin odatdagidek ikki nuqta qo‘yiladi. Masalan: Mavzu: “Ona mehri” kabi.



**11. Berilgan nomlarni o‘qing. Faqat mavzu bo‘la oladigan nomlarni chap ustunga, ham mavzu, ham sarlavha bo‘la oladiganlarini o‘ng ustunga yozing.**

“Ozod va obod diyorum”, “Saxiy kuz keldi”, “Qarisi bor uyning parisi bor”, “Men ardoqlaydigan fazilat”, “Dam olish kunida”, “Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi”, “Yurtimizni bog‘ga aylantiramiz”, “Oltin kuz”, “Bahor keldi”, “Zumrad bahor”, “Ko‘ngilsiz voqeа”, “Odamning qo‘li gul”, “Vatanimga xizmat qilaman”, “Uyda”, “Kutubxonada”, “Ko‘chada”, “Nonni isrof qilmang!”, “Eng yaxshi ko‘rgan adabiy qahramonim”.

Mavzu	Mavzu, sarlavha

**12. Quyidagi matnni o‘qing. Sarlavha matnning qaysi jihatini aks ettirayotganini, qo‘yilgan tinish belgisini izohlang.**

### **YOMG‘IR – ATMOSFERA YOG‘INI**

*Yomg‘ir – suyuq tomchi holidagi atmosfera yog‘ini. Tomchining diametri 0,5-0,6mm bo‘ladi. Yomg‘ir bulutdagi mayda suv zarralarining qo‘shilib yiriklashishidan hosil bo‘ladi. Yomg‘ir ikki xildir: jala yomg‘ir, shivalama yomg‘ir. Jala yomg‘ir to‘p-to‘p bulutlardan yog‘adi, ko‘p vaqt o‘tmay to‘xtaydi, tomchilari yirik bo‘ladi. Shivalama yomg‘ir esa qat-qat bulutlardan surunkasiga uzoq muddat shivalab yog‘adi, uning tomchilari mayda.*



**Ushbu matnga yana qanday sarlavha tanlash mumkinligini yozing:**

---

**13. Uch nomdan qaysi biri quyidagi matnga sarlavha bo‘la olishini aniqlang va izohlang:**



*...qishda men maktabimiz yo‘lidagi muzlagan ko‘lda yaxmalak otayotgan qizni ko‘rib qoldim. Ko‘rdim-u o‘tib ketaverdim. Birdan qiz chinqirib qoldi.*

*O‘girilib qarasam, muz yorilib, qizcha cho‘kib ketayotibdi. Darrov orqamga qaytib, qornim bilan muz ustida emaklab borib, qizning qo‘lidan tortdim. Rosa qiyaldim. O‘zim ham suvga tushib ketishimga sal qoldi. Yaxshiki, uni qutqarib qoldim...*

(R.Fayziy)



**Ushbu kichik hikoya uchun tanlagan sarlavhangizni izohlayotgan ikkita fikrni matndan ajratib yozing.**

---

---

---



**14. Bugun matabingizda kitob mutolaasiga bag‘ishlangan ijodiy kecha uyushtirilmoqda. Ushbu kechaning nomini sahna to‘riga yozib qo‘yish kerak. Kecha nomini berilgan uch ko‘rinishdan qaysi holatda yozilishini to‘g‘ri deb hisoblaysiz?**

**“Kitob – yo‘lni yoritguvchi nur”**

**Mavzu: Kitob – yo‘lni yoritguvchi nur**

**Kitob – yo‘lni yoritguvchi nur**



**15. Quyidagi mavzularni sarlavhalarga aylantirib yozing.**

<b>“Men kechagi kunni unutmayman”</b>	
<b>“Uy ishlariga yordam beraman”</b>	
<b>“Biz baliq oviga bordik”</b>	
<b>“Bugungi kun hayotimda eng quvonchi kun bo‘ldi”</b>	
<b>“Maktabimizda yozuvchilar bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi”</b>	
<b>“Ovqat pishirishni o‘rganishdi”</b>	

## SARLAVHADA BOSHQA TINISH BELGILARINING QO'LLANISHI



**5-QOIDA.** So‘roq mazmunidagi gaplar sarlavha vazifasida qo‘llanganda, ulardan keyin so‘roq belgisi qo‘yiladi:

*Telefon zararlimi?*

*Nima uchun odamlarga yaxshilik qilamiz?*

Undov gaplar sarlavha vazifasida qo‘llanganda, ulardan keyin undov belgisi qo‘yiladi:

*Vatan – sajadoh kabi muqaddas!*

Sarlavha vazifasida qo‘llangan gap mazmunan tugallanmagan bo‘lsa yoki ushbu mavzu haqida o‘ylashni taqozo etsa, ba’zan undan so‘ng ko‘p nuqta qo‘yilishi mumkin:

*Sog‘lom bo‘lay desangiz...*

*Mening orzularim...*



**16. Quyida berilgan sarlavhalarga tegishli tinish belgilarini qo‘ying.**

<b>So‘z haqida so‘z</b>
<b>Yoshlik</b>
<b>Bilasizmi</b>
<b>Vatanni sevish</b>
<b>Ko‘klam elchisi</b>
<b>Yomonlikdan saqlaning</b>
<b>Mehrning narxi bormi</b>
<b>Insoniy burch</b>



## 17. Berilgan matnlar uchun sarlavhalar tanlashga harakat qiling, undagi tinish belgilariga e'tibor bering.

---

*Rivoyat qilishlaricha, dutorni birinchi bo‘lib Qambar bobo ismli mashhur ovchi va musiqachi tut daraxti bo‘lagidan yasagan ekan. Dastlab uchta dutor yasab, ularni chalib ko‘rgan. Har biri turfa ovoz chiqarganidan hayratlangan. Ulardan biri barglarning shivirlashiga o‘xshash yengil ohang taratgan bo‘lsa, boshqasi tog‘ aks-sadosi singari yangragan, uchinchisi esa suvning jildirashi kabi ovoz chiqargan. Shunda usta yog‘ochlarni turli joylarda o‘sigan tut daraxtlaridan olganini eslaydi. Birini bog‘dagi, ikkinchisini tog‘ darasidagi, uchinchisini esa soy bo‘yidagi tutdan olgan edi. Har bir daraxt o‘z atrofidagi tovushlarni jamlagan. Ustaga suv bo‘yida o‘sigan daraxtdan yasalgan dutorning ohangi ko‘proq yoqadi va u yerga yuz yildan keyin kesib olishni vasiyat qilib, yosh tut novdasini ekadi. O‘sandan buyon, dutor tut daraxtidan, uning torlari esa ipak dan yasaladi. Shu nom bilan atalishi, bir ma’lumotga ko‘ra, tuttor – tutli tor yana boshqa ma’lumotga ko‘ra, dutor so‘zidan olingan. “Dutor” forscha so‘z bo‘lib, “ikki tor”, degan ma’noni anglatadi. U o‘zbek an’anaviy chertim cholg‘u sozlaridan biri. Uzoq o‘tmishdan xalq ijrochilik amaliyotida munosib o‘rin egallab kelayotgan yetakchi cholg‘ular qatoriga kiradi.*

*(“Gulxan” jurnalidan)*

!

*Urush bosilib, frontga ketgan yigitlar birin-sirin qayta boshladi. Kuz kelib, qovunpo ‘choq yerga tushganda qishlog‘imizda odam soni ko‘payib qoldi. Ilgari qishloq oralasangiz yigit zotini onda-sonda uchratardingiz. U ham biron yeridan o‘q yegan bechora, yo qo‘li, oyog‘i kesilgan, To‘lash akaga o‘xshagan mayib-majruh bo‘lardi. Ana endi desangiz, yigitlarning xo‘roziga to‘lib ketdi ko‘chalarimiz. Har mahallada, har go‘shada yursa yerni yondiradigan yigitlarning guldurakday tovushini eshitib, odamning badani yayraydi, deng,*

*qizlarimiz yana oftobshuvoqqa o’sma ekib, tuvakda xina o’stirishga tushib ketdilar. Salima xolam tag‘in chang bosib yotgan childirmasini qo‘liga olib, laparini boshladi. Ammo gapning o‘g‘il bolasini aytsam, mening Salima xolamdek laparchini Turkistonni yetti aylanib ham topolmasangiz keragov! Rost aytaman, to‘yhasham bo‘lsa, xolam uyning to‘rida o‘tiradi. Chirmandasini tarang qizdirib, bir lapar aytishga tushib ketsa bormi. Kulgan odam yig‘laydi, yig‘lab turgan odam kulib yuboradi.*

(Sa’dulla Siyoyev)

?

*Podsho Husayn Boyqaro vaziri Alisherga qayerda chivin bo‘lmaydi?” – deb savol beribdi. Vazir o‘ylanmasdan:*

– *Odam yo‘q yerda chivin ham bo‘lmaydi, – deb javob beribdi. Shunday qilib, bular otga minib, odam yo‘q yerlarni qidirib ketishibdi. Yo‘l yurib, yo‘l yursalar ham mo‘l yurib bir sahroga chiqishibdi. Shu yerda biroz dam olmoq uchun tushibdilar.*

*Alisher choy qaynatibdi, ikkisi choy ichib o‘tirgan vaqtida bir chivin “viz” etib Husayn Boyqaroning piyolasi yonidan o‘tib, etagiga qo‘nibdi. Shunda u:*

– *Alisher, odam yo‘q yerda chivin bo‘lmaydi, degan edingiz, mana bu yerda ham chivin uchib yuribdi-ku! – debdi.*

– *Ha, siz bilan biz odam emasmizmi? – deb javob beribdi Alisher.*

*Husayn Boyqaro Alisherga hamyonidan ming tillo chiqarib berib:*

– *Barakalla, yengdingiz meni, – debdi.*

(“El desa Navoiyni” kitobidan)



## **18. Quyidagi sarlavhalarni darak, so‘roq yoki undov gap shaklidagi mavzularga aylantirib yozing.**

“Yangi maktab binosi”	“Qish”
“Momaqaldiroq”	“Birinchi qor”
“Yosh chavandoz”	“Tog‘ga sayohat”
“Ziyrak bola”	“Chirchiq sohilida”
“Qish oqshomi”	“Erta bahor”

“Qanotli do ‘stlarimiz”	“Ustaxonada”
“Sirkda”	“Mening orzum”
“Do ‘stlik”	“Men yaxshi ko ‘rgan fan”
“Menga yoqqan kasb”	“Do ‘stlikning quadrati”



**19. Ijodiy matn yozish uchun sarlavhalar o‘ylab toping.**

---

---

---

---

---

---

**20. “Kuz manzarasi” sarlavhali kichik matn tuzing.**

---

---

---

---

---

---

---

## MATN QISMLARI



**6-QOIDA.** Matn bir yoki bir necha qismdan iborat bo‘ladi. Har bir qism ikki va undan ortiq gaplar guruhidan tashkil topadi.

Matn ikki va undan ortiq qismdan tuzilsa, matn mavzusi bosh mavzuga aylanadi, qismlar esa kichik mavzular hisoblanadi.

Kichik mavzular bosh mavzu doirasida bo‘ladi, undan chetga chiqmaydi.



### 21. Quyidagi uch qisqli matnni o‘qing.

Toshkent shahrining qadimgi nomlari turli manbalarda turlichal keltirilgan: Choch, Binkat, Shosh. Toshkent nomi ilk bor Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asarida uchraydi. Toshkent qadimdan savdo karvonlari to‘xtaydigan asosiy shaharlardan biri bo‘lgan. Bu narsa hozirgacha o‘z ta’sirini ko‘rsatib keladi. Respublikadagi bozorlarning eng ko‘pi Toshkent shahrida joylashgan.

Toshkent boshqa tarixiy shaharlarga nisbatan tarixiy yodgorliklarga boy bo‘lmasa-da, kelgan har bir mehmon ko‘rmasdan ketmasligi kerak bo‘lgan bir nechta obida bor. Shulardan eng mashhuri Toshkentning Eski shahar qismida joylashgan qadimgi Kaykovus anholi bo‘yidagi Hazrati Imom majmuasidir. Ushbu majmua turli davrlarda qurilgan me’moriy obidalar jamlanmasidir. Majmua toshkentlik mashhur diniy olim, shofeiy mazhabining imomlaridan biri, qoraxoniylarning rahnamosi Abu Bakr Muhammad Qaffol Shoshiyning maqbaralari atrofida dunyoga kelgani uchun Hazrati Imom nomi bilan ataladi.

Xalq orasida Xastimom nomi ko‘proq mashhur. Dastlabki maqbara XI asrda qoraxoniylar hukmronligi davrida qurilgan. Ammo mo‘g‘ullar istilosi, tabiiy ofatlar natijasida buzilib ketgan. Biz ko‘rib turgan hozirgi maqbara esa XVI asr Shayboniylar davriga oiddir. Maqbara xonaqoh tipida, to‘rtburchak shaklda qurilgan.

Gumbazi XIX asrdagi zilzila oqibatida talafot ko'rgan. Atrofida qabriston bo'lgan. Eshigi shimol tarafga qaratib qurilgani uchun maqbara ichi doimiy ravishda salqin. Janubida zamonaviy O'zbekistonning ikki muftysi Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon va u kishining o'g'illari Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon hazratlarining qabrlari joylashgan.

<https://daryo.uz/>

## Matnning mazmuni va tuzilishi asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

	Gaplar soni	Qisqacha ta'rif
<b>1-qism</b>		
<b>2-qism</b>		
<b>3-qism</b>		



## 22. Quyidagi uch qismli matnni o'qing, qaysi qism bosh mavzuga mos kelmasligini aniqlang va izohlang.

Samarqandda tarixiy obidalar son jihatidan u qadar ko'p emas. Sababi shahar ruslar tomonidan egallanganidan keyin ko'plab tarixiy binolar buzildi. Jumladan, Amir Temur saroylaridan biri Ko'ksaroy ham. Nafaqat Samarqandning, balki butun O'zbekistonning ramzi bo'lgan Registon maydoni shaharning tashrif qog'ozni hisoblanadi. Samarqandga borgan kishi borki, Registon ansamblini ko'rmasdan qaytmaydi.

Ushbu majmuaning markazidagi muzeyda Hazrati Usmonga tegishli deb qaraladigan Qur'oni Karimning eng qadimgi qo'lyozmasi saqlanmoqda. Ko'pchilik aynan ushbu nodir qo'lyozmani ko'rishni istaydi. Muzey XVIII asrda qurilgan Mo'yi Muborak madrasasida tashkil qilingan.

Registon maydoni Samarqandning markazi hisoblangan. U yerda bozor mavjud bo'lgan. XV asrda Mirzo Ulug'bek bu yerda madrasa, xonaqoh, karvonsaroy qurdirgan. Ammo vaqt o'tishi bilan karvonsaroy hamda xonaqoh nurab qolgan. XVII asrga kelib

*Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir Ulug'bek madrasasi ro'parasida, xonaqoh o'rnila katta madrasa qurdirgan. Peshtoqidagi sher tasviri tushirilgan bezaklari uchun xalq orasida Sherdor nomi bilan mashhur. Maydonning g'arbiy qismida Mirzoyi karvonsaroyi o'rnila Yalangto'sh Bahodirning ikkinchi madrasasi bor.*

<https://daryo.uz/>



### **23. Quyidagi matnni o'qing. Qismlarga mos kichik mavzularning ketma-ketligini aniqlashga harakat qiling.**

#### **SEDANA**

Sedana O'zbekistonda ekib o'stiriladi. Bir yillik o'simlik. Poyasi yumaloq, shoxlamagan, bargi patsimon ketma-ket joylashgan. Gullari yirik, zangori rangda bo'ladi. May oyida gullab, iyunda pishadi.

Abu Ali ibn Sino sedana bilan boshog'riqni davolagan, asal bilan qo'shib buyrak toshini tushirgan hamda yuz nervi falajini davolagan. Xalq tabobatida sedana urug'i damlamasidan tish og'rig'ini qoldirishda, uyqu dorisi sifatida, shuningdek, me'da shamollashi, tomoq og'riqlarini davolashda foydalanilgan.

Oziq-ovqatlar tayyorlashda ham ishlatiladi. Momolarimiz o'zlarini bilmagan holda qadimdan non ustiga sepib pishirganlar va shu non iste'mol qilinganda yuqorida ko'rsatilgan xastalik bilan og'rigan bemorlarga davo bo'lган.

Sedana urug'ida efir moyi hamda dorivorlarda ishlatiladigan ayrim xossalalar mavjud.

Qadimdan sedana o'limdan boshqa hamma dardga davo, deganlar.

(“*O't-giyohlar va mevalar xosiyati*” kitobidan)

**SEDANANING  
KIMYOVIY  
XUSUSIYATLARI**

**XULOSA**

**SEDANANING  
SHIFOBAXSH  
XUSUSIYATLARI**

**SEDANANING  
BIOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**SEDANA OZIQ-  
OVQAT MAHSULOTI  
SIFATIDA**




**7-QOIDA.** Matnda bosh mavzuning nomi bilan kichik mavzuning nomi bir-biridan farq qiladi. Bosh mavzuda fikr bayon qilinayotgan masala keng, kichik mavzuda esa uning tarmoqlanishi sifatida torroq ifodalanadi. Masalan, “Qushlar – bizning do‘stimiz” – bosh mavzu, “O‘lkamizda yashaydigan qushlar”, “Qushlarning oziqlanishi” – kichik mavzular.



**24. Quyidagi mavzularni o‘qing. Qaysi mavzu bosh, qaysilari kichik mavzular bo‘la olishini aniqlang va quyidagi ustunlarga yozing.**

“Tog‘ga sayohat”, “Ustaxonada”, “Tog‘ga yo‘l oldik”, ‘Men o‘roq yasay boshladim’, “Kuzgi ishlar”, “Ta’til boshlandi”, “Men yosh chavandozlar bilan suhbatlashdim”, “Ona mehri”, “Onam aytgan allalar hali ham yodimda”, “Bahorda”, “Bahorgi taomlar”, “Bahor bayramlari”, “Bizning ko‘cha”, “Sevimli ustozim”, “Kuzgi tabiat”, “Bobomning o‘giti”, “Hayotdagi bosh maqsadim”, “Kutilmagan sovg‘a”, “Hayvonot bog‘ida”, “Foydali mashg‘ulot”.



## 25. Quyidagi matn qismlari asosida kichik mavzularni ta’riflang.

### HAYVONOT BOG‘IDA

*Ta’tilning so‘nggi kunlaridan birida Botir juda ham hayvonot bog‘iga borgisi keldi. Erta tongdan oyisini shoshirdi. Ular kelganda hali bog‘ning darvozasi ochilmagandi. Birozdan keyin chipta olib ichkariga kirishdi. Avval baliqlarni, keyin qushlarni ko‘rishdi. So‘ngra fil, bo‘ri, sher, tulkini tomosha qilishdi. So‘ng Botirga oyisi o‘yinchoq sotadigan do‘kondan koptok olib berdi.*

*Aylanib yurib, ular ayiqlar yoniga kelishdi. Botir quyonni tomosha qilib turgan edi, bexosdan qo‘lidagi koptok dumalab ketdi. Avvaliga Botir biroz xafa bo‘ldi. Qarasa, ayiqlar koptokni dumalatib o‘ynay boshlashdi. Botir bu manzaradan judayam zavqlandi. Buni ko‘rgan bir chol Botirga koptogini olib bermoqchi bo‘ldi.*

*Botir esa xohlamadi. U koptokni ayiqlarga sovg‘a qilgisi keldi. Axir ular koptokni mazza qilib o‘ynashayotgan edi-da. Endi zerikishmaydi.*

*Botir yaxshi kayfiyatda uyiga qaytdi. Shu kuni buvisining gapini esladi: yaxshi insonlar kimnidir xursand qilsa, o‘zi undan-da ko‘p xursand bo‘ladi.*

*(Iqbol Malikova)*



**7-QOIDA.** Kichik mavzular bosh mavzuning tarmoqlari hisoblanadi. Kichik mavzular bosh mavzu doirasida qaysi masalalar haqida gapirilmoqchi ekanligini bildiradi.



**26. Quyida berilgan bosh mavzular bo‘yicha nimalar haqida gapirish mumkin? Kichik mavzular o‘ylab toping.**

BIZNING KO‘CHA

KIM BO'LSAM EKAN?



## 27. Berilgan kichik mavzularni bitta bosh mavzuga keltiring.

**Namuna:**

“Maktab hovlisi”, “Kichik maydonchamiz”, “Gulzor” – bular kichik mavzular.

**Bosh mavzu – “Bizning maktab”.**

**1. Ertalab. Maktabda. Maktabdan uya kelgach. Kechqurun.**

---

**2. Qarmoqlarni tayyorladik. Daryo bo'yiga bordik. Suvga qarmoq tashladim.**

---

**3. Ko'chat o'tqazishga tayyorgarlik. Ekilgan ko'chatlarga suv quyidik.**

---

**4. Sirk binosiga kirdik. Masxarabozlarning chiqishi. Fillar.**

---

**5. Toshkentda bo'ldim. Poytaxtdagi o'zgarishlar.**

---



## 28. “Bizning oila” mavzusiga mos kichik mavzular tanlab, kichik hajmli matn yarating.

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---



## 29. Quyidagi matnga bosh mavzu tanlang hamda matndagi kichik mavzularni aniqlang.

*Men mакtabga hhammadan birinchi boraman. Sinfga shoshib kiraman. Ustozimiz Nodira opa mendan ham avval keladi. Jurnalga yozayotgan, yo gullarga suv quyayotgan bo‘ladi. Ko‘pincha salom berishga ulgurmasimdan, “Aziza, kelayotganiningni oyoq olishingdan bilaman”, deydi. Hayronman, yurishning ham farqi bormi? Ularga yordamlashgim keladi, yonlariga yaqinlashaman. Kuzataman, gap aytolmayman.*

*“Sa-algina kattargin, menga ko‘makchi bo‘lasan”, – ustozim xayolimdan o‘tganlarini qanday qilib bilib olarkin, deyman. Yoki kichkinagina apparati bormikin..?*

*Nodira opamiz hech kimga o‘xshamaydi. Doim kulib turadi, lekin qattiqqa ‘l! Sinfimizda hamma, hatto to‘polonchi bolalar ham ustozni yaxshi ko‘radi. Nimaga, deysizmi? O‘quvchilarning savoliga ustoz doim chiroyli javob beradi. Keyin ular sinfimizning onasiga o‘xshaydi. Hamma bola “Ustoz meni yaxshi ko‘radi” deb o‘ylaydi. Kim xafa bo‘lsa, tanaffusda bir o‘zini chaqirib gaplashadi. Sehrli so‘z aytadimi, darrov xursand bo‘lib ketadi.*

*Bir zumda sinf bolalarga to‘ldi. Qo‘ng‘iroq chalindi. Dars boshlandi. Ustoz doskaga katta harflar bilan yoza boshladi: “KIM BO‘LSAM EKAN?”*

*“Shu mavzuda insho yozamiz, – dedi Nodira opa. – Qaysi kasb egasi bo‘lmoqchisiz? Nima uchun? Shu haqida yozinglar. Bir-biringizga halaqit bermanglar”.*

*Bolalar bir muddat ruchkalarini o‘ynab o‘tirishdi, asta shivirlashgandek bo‘ldi. Sinf jim edi. Hatto o‘quvchilarning yozayotgani eshitilardi. Men ham yoza boshladim:*

*– Imkoni bo‘lganda edi, juda ko‘p kasblarni egallardim. Shifokor bo‘lib, bemorlarni tuzatardim. Me’mor bo‘lib, chiroyli uylar qurilishiga hissa qo‘sardim. Tarjimon bo‘lsam, O‘zbekiston haqida, ota-onam va Siz haqingizda dunyodagi hamma odam bilishini istardim. Ustoz, darslaringizga shoshib kelishimni bilasiz-a? Sizga nimanidir aytmoqchi bo‘laman-u, aytolmayman. Hammaning ustozi bo‘larkan. U hech kimga o‘xshamaydi. Men esa... Sizga o‘xshasam maylimi, ustoz?*

*(D. Shomalikova)*






**8-QOIDA.** Kichik mavzular muayyan izchillikda bo‘ladi. 1-kichik mavzu 2-sining davomi bo‘lsa, ular o‘rin almashadi: 2-kichik mavzu 1-mavzu sifatida oldinga olinadi.


**30. Quyidagi sarlavhalar bo‘yicha berilgan kichik mavzularni raqamlab, ularni izchil holga keltiring.**

### **“SEVIMLI MASHG‘ULOTIM”**



- ✓ Sarlavha bilan bog‘liq kichik mavzularning ketma-ketligini aniqlang.

### **SEVIMLI MASHG‘ULOTIM**



- ❖ *Bu kitobni bugun o‘qib bo‘laman.*
- ❖ *Bugun yangi kitob olib keldim.*
- ❖ *Kitob qiziq ekan.*

## “MENING ORZUM”

**Orzumga yetish uchun yaxshi o‘qishim kerak.  
Uchuvchilik kasbi menga yoqadi.**



**Ushbu sarlavhalar uchun berilgan kichik mavzularni ketma-ketlikda yozib chiqing.**

### DO‘STLIK HAQIDA O‘YLARIM

(Haqiqiy do‘st. Mening do‘stim  
bor. Do‘stimning xislatlari.)


### MEN YAXSHI KO‘RGAN FAN

(Matematik bo‘lmoxchiman.  
Yaxshi fanlar ko‘p. Men  
matematikaga qiziqaman.)



### 31. Berilgan matn qismlarining joylashish tartibini quyidagi chizmaga joylashtirish orqali ularning izchilligini tiklang, o'zgarishlar sababini izohlang.

- |   |   |
|---|---|
| 1 | Oradan ikki yil o'tdi. Bultur kuzak tag'in tog'ga yo'lim tushdi. Beixtiyor chinor tomon burildim. Qarab ko'zlarimga ishonmadim: u yerda Qobil bobo vaqtidagi manzara qayta jonlanibdi, yo'q undan ham fayzliroq... Kuz boshlanganiga qaramay daraxtlarning shox-yaproqlari yam-yashil. Oldingisidan kengroq ariqda zilol suv ayqirmoqda. Sho'ra-yu ajriqlardan musaffo bo'lgan gulzorda esa rango-rang gul, rayhonlar gurkirabdi. |
| 2 | Navbatdagagi tog' sayohatida ko'hna chinor tagiga burildim-u, hang-mang bo'lib qoldim. Chinor osti ship-shiydam: na choyxonadan nom-nishon bor, na gulzordan. Jilg'a ham qurib, hamma yoqni yana sho'ra, ajriq bosib ketibdi. Suvsizlikdan yosh daraxtlarning shox-yaproqlari kuz kirmay sarg'aya boshlabdi. Faqat ko'hna chinor hamon viqor bilan tanho kekkayib turibdi.  |
| 3 | Bu achinarli ahvolning sababini keyin bildim. Qobil bobo olamdan o'tibdi.   |
| 4 | Tog' qishlog'iga safarlarimni eslasam, yo'ldagi ko'hna chinor va uning ostidagi istirohatgoh ko'z oldimga keladi.   |



Ushbu hikoya matniga qaysi sarlavha mos keladi?

- A. KUZ
- B. CHINOR
- C. QOBIL BOBO

## 32. Berilgan matn qismlarini quyidagi kichik mavzular asosida tartib bilan joylashtiring hamda yaxlit matn hosil qiling. Matn uchun sarlavha tanlang.

<p>Umuman, o‘zbek tilining kelajagi, mavqeyi, obro‘-e’tiborini hech kim chetdan kelib, ta’minlab bermaydi. Bu til bizning ota-bobolarimizdan o‘tib kelayotgan eng katta boyligimiz. Bu tilning kelajakda yanada yuksak mavqe va obro‘-e’tibor qozonishi o‘zimizning istagimiz, g‘ururimiz, qat’iyatimizga bog‘liq.</p>	<p>“O‘zbek tili – davlat tili”</p>
<p>O‘zbek tili davlat tili maqomiga ega bo‘lgan 100 ta tildan biridir. Holbuki, dunyoda bunday yuksak maqomga ega bo‘lmagan, ammo yuz millionlab kishilar so‘zlashadigan tillar ham bor. O‘zbek tili qo‘shti davlatlarda ham muomaladagi asosiy tillardan sanaladi. Xususan, qo‘shti Tojikistonda va Qirg‘izistonda o‘zbeklar nufusiga ko‘ra, titul millat vakillaridan keyingi o‘rinda turadi. Afg‘onistonda esa, o‘zbek tili pushtu va dariy tillaridan keyingi uchinchi rasmiy til sanaladi. Qo‘shti davlatlardan tashqarida ham, Turkiya, Xitoy, AQSh, Hindiston singari davlatlarda oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili alohida fan sifatida o‘rgatiladi.</p>	<p>“O‘lik tillar”</p>
<p>Tarixga nazar tashlasak, asrlar, davrlar o‘tishi bilan ko‘plab tillar iste’moldan chiqib “o‘lik til”ga aylanganini ko‘ramiz. Lotin, oromiy, qadimgi yunon, suryoniy, kelt, shumer, akkad, xett tillari... Ular qatori bir paytlar yurtimiz hududida muomalada bo‘lgan qadimgi xorazmiy, so‘g‘d, boxtariy (baqtriy) tillarini ham keltirish mumkin. Turli bosqinlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, avlodlar almashuvi, din va mafkuralar almashuvi singari omillar tillarning taqdirida hal qiluvchi rol o‘ynagan.</p>	<p>“Tilimiz – boyligimiz”</p>



**33. “Mening sevimli mashg‘ulotim” mavzusida ijodiy matn yozish uchun kichik mavzularni tanlang.**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

## INSHOGA REJA TUZISH



**9-QOIDA.** Insho yozayotganda uning reja moddalari kichik mavzularni: har bir qismda nimalar haqida yozish kerakligini eslatib turadi. Kichik mavzular insho yozilmasidan avval reja moddalari sifatida o‘ylab olinadi, ba’zan inshoning avvalida yozma ravishda tuziladi. Ikki-uch moddali rejada alohida satrda “Reja” so‘zi yozilib, undan keyin ikki nuqta qo‘yiladi; kichik mavzular arab raqamlari bilan yoki alifbo tartibidagi kichik harflar bilan belgilanadi. Arab raqamidan keyin nuqta yoki yopiladigan qavs qo‘yiladi. “*Tog‘ga sayohat*” mavzusidagi insho rejasidan namuna:

***Reja:***

1. *Tog‘ga borayotib.*
2. *Tog‘da.*
3. *Qaytishda.*

***Reja:***

- 1) *Tog‘ga borayotib.*
- 2) *Tog‘da.*
- 3) *Qaytishda.*

***Reja:***

- a) *Tog‘ga borayotib.*
- b) *Tog‘da.*
- d) *Qaytishda.*




**34. Berilgan bosh mavzu asosida uchta kichik mavzuni aniqlang. Reja tuzing va yozing.**

### YOLG‘ONCHILIKDAN SAQLANING!

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_

### 35. Bosh mavzu asosida tuzilgan kichik mavzular orasida begonasi bor yoki yo‘qligini aniqlang.



36. Quyidagi ijodiy matnni o‘qib chiqing. Unda ajratilgan kichik mavzularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini izohlang: kichik mavzu bilan bog‘liq xatolarning sababini tushuntiring. Bu xatolar matnga ta’sir qilganmi?

#### Zumrad bahor

##### *Reja:*

1. Bahorgi tabiat.
2. Bahordagi ishlar.
3. Men bahorni yaxshi ko‘raman.

Bahor fasli boshqa fasllar ichida eng chiroylisi. Bahorda yomg‘ir yog‘adi. Shamol ham bo‘ladi. Bahorda daraxtlar uyg‘onadi. Birinchi bo‘lib bodom, keyin o‘rik gullaganida, albatta, qor yog‘adi. Tabiat juda go‘zal bo‘ladi. Har bir faslning o‘ziga yarasha gashti, xususiyatlari bor. Bahor faslining juda chiroyli udumlari bor. Bulardan eng gashtlisi sumalak pishirish. Bu taom juda qadimdan urf bo‘lib, odat bo‘lib kelgan...

Bahor kelishi bilan bobodehqonlarimiz yana ish boshlashadi...  
Har bir inson bir donadan bo‘lsa ham ko‘chat ekadi. Gullar ekiladi...  
...Sevimli Navro‘z bayramini kutib, a’lo bahoga o‘qiymiz.



### 37. Matnni quyida berilgan kichik mavzular asosida maxsus belgilar yordamida qismlarga ajrating.

#### DORBOZLIK

Dorbozlik – san’atning eng qadimiy turlaridan biri. Bu san’at taxminan ikki ming besh yuz yil ilgari Sharqda paydo bo‘lgan. Keyinchalik u butun dunyoga tarqalgan. Dor dastlab unchalik baland bo‘lмаган. Uning ustida ko‘rsatiladigan tomoshalar ham sodda bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan asta-sekin dor balandroq qurila boshlagan, tomoshalar ham murakkablashib borgan. Bir ming sakkiz yuz ellik to‘qqizinchi yilda mashhur fransuz dorbozi K.E.Blonden Niagara sharsharasi ustida dor qurib tomosha ko‘rsatgan. O‘zbekistonda ham dorbozlik uzoq tarixga ega. O‘zbek dorbozlari dorning balandligini qirq-ellik metrga yetkazishgan. Bunday dorlarda hamisha yugurish, sakrash, ko‘zni bog‘lab yurish kabi tomoshalar ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda katta bayramlarda doimo dorbozlik tomoshalari ham ko‘rsatiladi. Ko‘pincha dor o‘yinlari davomida ancha-muncha masxarabozlar, raqqoslar, polvonlar, musiqachilar ham ishtirok etib, o‘z san’atlarini namoyish etadilar. Hozirgi kunda dorbozlik sirk san’atining alohida turidir. Shuning uchun ham bugungi kunda xalqimiz bunday san’at turiga e’tiborni qaratmoqda.

(I. Mahmudov)

1. Dorbozlik san’ati haqida
2. O‘zbekistonda dorbozlik san’atining rivojlanishi
3. Bayramlarda dorbozlik tomoshalarining ko‘rsatilishi
4. Bugungi kunda dorbozlik san’atiga e’tibor



### 38. “Qishki o‘yinlar” bosh mavzusida kichik mavzular tanlang. Ijodiy matn yozing.

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

## XATBOSHI



**10-QOIDA.** Har qanday matnning birinchi gapi xatboshidan yoziladi. Matn qismlarga (abzaslarga) bo‘linadi. Ushbu qismlar ham xatboshidan boshlanadi. O‘qiganda yoki gapirganda qismlar orasida kattaroq to‘xtam qilinadi.



**39. Birida xatboshi belgilanmagan, boshqasida esa xatboshi belgilangan matnlarni o‘qing. Qanday farq bor? Qayerda xatboshilar bo‘lishi kerakligini belgilang va izohlang.**

### BIRINCHI MATN

...U paytlarda hayot juda og‘ir edi. Urushdan och-u yalang‘och chiqqan odamlar kun ko‘rish uchun o‘zini ming tarafga urgan kezlar. Ertalab hamma o‘qishga, ishga ketadi. Bo‘s sh vaqt topildimi, kun o‘tkazish uchun hamma o‘lib-tirilib mehnat qiladi.

Har qanday holatda kitob o‘qirdim: darslar oralig‘idagi tanaffus paytlarida, ovqat yeyotganda, mehmonga borganda, to‘y bo‘layotganda (tomning ustiga chiqib o‘qiyverasan – sen bilan birovning ishi yo‘q!)... Hatto yurib ketayotganda ham urilib-surilib o‘qiyverardim. Mol boqishga chiqqanda ham, albatta, kitob ko‘tarib olardim. Mol boqib kitob o‘qish eng qiyin ish edi.

Ekinzorlar orasidagi parcha-purcha bo‘s sh joylarda qo‘y-echkilarni boqardim. Yem bo‘laverib bu joylardagi ko‘katlardan hech vaqo qolmagan. Jonivorlar ko‘m-ko‘k bo‘lib yashnab yotgan ekinga intiladi. Ularni qaytarib kitobga ko‘z tikaman. Birpasdan so‘ng kitobdan bosh ko‘tarib qarasam, ular paykalning o‘rtasida ekinni ishtaha bilan yeyotgan bo‘ladi. Yugurgilab borib qaytarasan, yana o‘qishga tutinasan. Bir qarasang yana... Bu hol to‘xtovsiz takrorlanadi.

*(Usmon Azim, O‘zbekiston xalq shoiri)*

## IKKINCHI MATN

Yoshlik – sho‘xlik deganlaridek juda o‘yinqaroq bola bo‘lganman. Bir kuni ko‘chaga chiqsam, mahallamizning mashhur “Pat-pat” traktori turibdi. Biz bolalar uni shunday nomlagandik. Yoniga borib ko‘rsam, haydovchi amaki traktorni tashlab qayergadir ketibdi. Suyunib ketdim. Sakrab traktorga chiqib oldim. Shoshilgancha o‘zimcha nimani bosib, buradim, bilmayman, traktor tarillab yurib ketsa deng. Qo‘rquvdan dag‘-dag‘ titrardim... Keyin qo‘shnilarimizdan biri yugurib kelib traktorga chiqdi-da, uni to‘xtatdi. “Pat-pat” to‘xtaguncha yo‘lda bolalar unutib qoldirgan koptogi-yu, o‘yinchoqlarini majaqlab ketibdi. Rangimning dokadek oqorganini ko‘rgan qo‘shnim uyiga olib kirib suv ichirdi. Shundan keyin “Pat-pat”ga yaqin yo‘lamaydigan bo‘ldim. Eng sevimli o‘yinlarimdan biri – bekinmachoq edi. Ayniqsa, bu o‘yin bizning ko‘chada juda qizg‘in o‘tardi. Kimdir qamishzor orasida, kimdir daraxt tepasiga chiqar, yana kimdir gujum daraxtining orasiga berkinib olardi. Shuning uchun ham berkingan odamni topish uchun ancha ovora bo‘lardik. Uyga qaytgunimizcha sillamiz qurigan, charchab, horigan, hattoki ovqat yeyishgayam holim kelmay, yostiqni quchoqlagancha uqlab qolardim. Men hozir o‘sha damlarni o‘zgacha entikish va sog‘inch bilan eslayman.

(Omon Matjon, O‘zbekiston xalq shoiri)



**Birinchi matn uchun berilgan quyidagi chizma asosida ikkinchi matn uchun chizma tayyorlang.**

### Kitobga oshno bolalik

Urushdan keyingi yillar

Kitob – eng yaqin do‘stim

Kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoyq



## 40-mashq. Quyidagi matnni o‘qing, xatboshilarni belgilang.

Kuz va bahorda dala hovlida bo‘lganimizda, tog‘amnikida istiqomat qilib, o‘qishimni uzluksiz davom ettirdim. Tog‘am bolalarning o‘qishiga e’tibor berardilar. U kishi nog‘orani nihoyatda mohirlik bilan chala olardi. Bir kuni menga nog‘ora cho‘plarini tutqazib, “Qani, tak-taka-tum, deb takrorlayver”, dedilar. Men ko‘pdan u kishini kuzatganim uchun xuddi aytganlariday chalaverdim. Bir kuni tog‘am meni teatrga olib tushdilar. Esimda, teatrga kechasi yosh bolalar qo‘yilmas edi. Ammo tog‘am tomoshabinlar orasidan epchillik bilan meni choponlarining etagiga o‘rab, olib kirib ketganlarini nazoratchi ham sezmay qolgandi. Voqealar esimda saqlangan emas, asarning nomini ham bilmayman, ammo bir voqea yodimda qolgan. Sahnada bir odamning ko‘ksiga pichoq urishdi va u odam halok bo‘ldi. Tomosha tugagach, eshikka chiqib turgan edik, haligi ko‘ksidan pichoq yegan aktyor xoxolab kulib o‘tsa bo‘ladimi! Men uning nimaga kulganini bilmayman-u, ammo o‘lgan odam qanday tirildi deb, ancha vaqt o‘ylab yurganman. Onam Turdiniso aya ham nihoyatda zavqli ayol edilar. Katta patnisni chertib, allaqanday laparlarni kuylab, bizni o‘yinga tushirishni yoqtirardilar... Xullas, san’atga bo‘lgan muhabbatim asta-sekin ildiz otishi shundanmikan, deb o‘ylab qolaman.

(Zikir Muhammadjonov, O‘zbekiston xalq artisti,  
O‘zbekiston Qahramoni)



**11-QOIDA. Xatboshi matn qismlarini, har bir qismga kiruvchi gaplar guruhini ko‘rsatgan holda sahifada joylashtirish: bir qismni ikkinchi qismdan ajratish, navbatdagi qism orqali yangi fikr bayon qilinishini bildirish uchun xizmat qiladi.**

## **Xatboshilarni ajratishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan jihatlar:**

- 1. Yangi fikrlar oqimining yuzaga kelganligi.**
- 2. Bir fikrlar guruhining ikkinchi guruhidan ajratilganligi.**
- 3. Agar reja mavjud bo'lsa, fikrlarning rejaga moslashganligi.**
- 4. Xatboshilar o'rtasidagi mantiqiy izchillik va bog'liqlikning ta'minlanganligi.**



**41. Quyidagi matnni o'qing, har bir qismda yangi fikr boshlangan gap nima haqda ekanligini ayting, qismlar nima uchun ajratilganini, ular orasida qanday mazmuniy yaqinlik va farq borligini izohlang.**

BMT tomonidan 21-mart kuni Xalqaro o'rmonchilik kuni sifatida nishonlanishi ham o'simlik dunyosining inson sivilizatsiyasi rivojidagi ahamiyatini namoyish etish uchun mo'ljallangan.

Daraxtlar shahar sharoitida havoni tozalab, uni namlantirib, mo'tadil iqlim sharoitini yaratishda xizmat qilibgina qolmay, olimlarning ta'kidlashicha, to'g'ri ekilgan daraxtzorlar havo haroratini 8 darajagacha tushirishi mumkin ekan. Shaharlardagi daraxtzorlar zararli ifloslantiruvchi moddalarni va kimyoviy zarralarni yutuvchi – havo filtri sifatida ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda milliardlab insonlar xavfsiz suvdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari tobora murakkab tus olmoqda. Shu sababli 2010- yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti "xavfsiz va toza ichimlik suviga hamda sanitar sharoitlariga bo'lgan huquqni to'laqonli hayotda va barcha tan olingan boshqa inson huquqlari qatorida muhim ahamiyatga ega bo'lgan huquq" sifatida tan oldi.

Hozirda atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, turli xil davlatlardagi mojarolar, qochoqlar, migratsiya muammolari oqibatida, hisoblarga ko'ra, dunyo bo'y lab 2 milliarddan ortiq aholi toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish imkoniyatiga ega emas. Ma'lumotlarga ko'ra, ifloslangan suv iste'mol qilish tufayli kelib chiqqan kasalliklar oqibatida har kuni dunyo bo'y lab yetti yuzdan ortiq 5 yoshgacha bo'lgan bolalar hayotdan ko'z yumadilar. 159 milliondan ortiq yer yuzi aholisi ichimlik suvini suv havzalari va

hovuzlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri olishga majburdirlar. 2030- yilga borib 700 milliondan ortiq aholi suv tanqisligi oqibatida o‘z yashash makonlarini tashlab ketishga majbur bo‘ladi.

Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan oqilonan foydalanish insonlarning ekologik savodxonligi, saviyasi va ekologik madaniyatiga bog‘liq.

<http://www.ma'naviyat.uz>



## 42. Matnni o‘qing, matn asosida quyida berilgan jadvalni to‘ldiring.

### BAXTLI ODAM

Qadim zamonda bir podshoh kasal bo‘lib qolibdi. Uni davolash uchun butun dunyo tabiblarini chaqirishibdi, lekin hech biri podshohni davolay olmabdi. Shunda ular maslahat qilib bir qarorga kelishibdi: agar baxtli odamni topib, uning ko‘ylagi podshohga kiydirilsa, u tuzaladi. Baxtli odamni topish uchun dunyoning hamma tomoniga choparlar jo‘natilibdi. Lekin choparlardan hech biri “Men baxtliman”, degan odamni topa olmabdi. Kimdir boy, lekin kasal, yana kimdir sog‘, ammo kambag‘al, boshqasi boy, sog‘, biroq oilasi notinch, xullas, hamma nimadandir nolir edi. Bir kuni kechqurun podshohning o‘g‘li shahar ko‘chalarini aylanib yursa, bir hovlidan kimningdir gapini eshitib qolibdi. U: “Yaxshi ishладим, pulimни oldим, qорним то‘yди, endи maza qилиб уxlayman. Menden baxtli odam yo‘q”, – debdi. Podshohning o‘g‘li sevinib ketib, tezda xizmatkorlarini jo‘natibdi. Katta pul evaziga o‘sha odamning ko‘ylagini olib kelishni tayinlabdi. Xizmatkorlar hovliga kirib shahzodaning buyrug‘ini bajarmoqchi bo‘lishibdi, lekin qarashsa, haligi “baxtliman” degan odam shunchalik qashshoq ekanki, hatto egnida ko‘ylagi ham yo‘q ekan. Ey farzand, bilginki, baxt keluvchi va ketuvchi narsadir. Odam o‘zini bir muddat baxtli hisoblashi uchun boy bo‘lishi shart emas, balki bor narsasiga shukr qilsa, kifoya.

<b>Matndagi qismlar soni:</b>	
<b>....-xatboshi qanday boshlangan?</b>	
<b>....-xatboshi qanday boshlangan?</b>	
<b>....-xatboshi qanday boshlagan?</b>	
<b>Xulosa</b>	



### 43. Quyidagi matnni xatboshilar yordamida qismlarga ajrating.

Ernest Miller Xeminguey 1899-yil 21-iyulda AQSH Illinoys shtatining Chikago yaqinidagi Ouk Park shaharchasida dunyoga keldi. Uning otasi Klarens Edmont Xeminguey – shifokor, onasi Greys Xol – uy bekasi (bir vaqtlar taniqli xonanda bo‘lgan) edi. Ular 6 farzand ko‘rishgan. Ernest ikkinchi o‘g‘il edi. Ikkinchi farzandining qiz bo‘lishini juda-juda xohlagan qaysar Greys xonim Ernest sho‘rlikni to‘rt yoshigacha qiz bolacha kiyintirib, sochini o‘stirib, lenta taqib qo‘yardi. Nima gapligiga aqli yetmagan Erni (oilada uni erkalatib shunday chaqirishardi) onasining bu odatiga qarshilik qilmasdi. Otasi ham orzusini shu o‘g‘lida ko‘rardi shekilli, bolakayga esini tanir-tanimas qarmoq sovg‘a qildi va o‘g‘lini ko‘tarib sevimli mashg‘uloti baliq oviga olib bordi. Kechgacha daryo sohilida o‘tirib, ikkita ulkan va ko‘pgina mayda baliq tutgan ota-bola uyga shunday xursand qaytishdiki... . Bu zavq Ernini umri oxirigacha ham tark etmadni. Bir umr baliq ovi ishqibozi bo‘ldi. U mashhur adib bo‘lgan chog‘larida ham g‘ala-g‘ovurdan qochib, qarmog‘ini ko‘tarardi-yu dengiz sari yo‘l olardi. Bobosi va otasi bo‘sht vaqt topdi deguncha Ernini yetaklab daryo sohillariga, ekinzorlarga, o‘rmonga olib borishardi. Har bir daraxt, gul-u giyoh, dalada mehnat qilayotgan hindular, kambag‘al dehqonlar, chorvadorlar hayoti haqida hikoya qilishardi. Sayohat chog‘ida dadasi: “Tabiatni tomosha qilish kerak emas, uning odamlar hayoti bilan uyg‘unligini his etish kerak”, – deb ta’kidlardи.

<https://gulxan.uz/mashhurlar-bolaligi>

<b>Matndagi qismlar soni:</b>	
<b>....-xatboshi uchun nom tanlang.</b>	
<b>....-xatboshi uchun nom tanlang.</b>	
<b>....-xatboshi uchun nom tanlang.</b>	



#### 44. Quyidagi matn qismlarini ularning umumiyl g'oyasini aniqlagan holda tartib bilan joylashtiring.

<b>Haqiqiy kitobxon</b>	Kitob o‘qish, avvalambor, qiziqishni talab qiladi. Biror narsaga qiziqmasdan turib kitob o‘qib bo‘lmaydi. Kitob, asosan, ikki sababga ko‘ra o‘qiladi. Birinchisi “Kitob o‘qish men uchun juda muhim, kitob o‘qimasam bo‘lmaydi”, degan fikr bo‘lsa, ikkinchisi “qiziqish”dir. Birinchi fikrni ikkinchi sabab qo‘llab-quvvatlamasa, istalgan natijaga erishib bo‘lmaydi. “Qiziqish”ning o‘zi ham kitob o‘qish uchun yetarli sabab bo‘la oladi. Biroq “Kitob o‘qimasam bo‘lmaydi, chunki...” kabi fikrlar buning davomiyligini ta’minlay olmasligi mumkin.
<b>Kitobga qiziqish</b>	Oilaviy kitob o‘qish soatlari orqali farzandimiz ham bizdan yaxshi o‘rnak oladi, o‘zimiz ham kitob o‘qish uchun alohida belgilangan vaqtga ega bo‘lamiz. Bu esa oilada kitob o‘qish odati va madaniyatini yanada rivojlantiradi. Mutolaa uchun ajratilgan soat yakunida har bir kishi o‘qigan kitobidagi o‘zi yoqtirgan va qiziqarli bo‘lgan joylarini boshqalar bilan baham ko‘rishi ham mumkin. Bu orqali oiladagi birdamlik va samimiyat tuyg‘ulari mustahkamlanadi, shu bilan birga, kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish ortib boradi.
<b>Oilaviy kitobxonlik</b>	Qiziquivchan odamlar kitob o‘qishda qiynalmaydilar: “Bu masalada shu kitobda nima deyilgan ekan? Shu kishi bu mavzuda qanday fikr bildiribdi? Bu yozuvchi masalaga qanday yondashibdi?” va hokazo... Kitobxon biror bir mavzuga berilib, kitobning ichki olamiga cho‘mib mutolaa qilsa, o‘zini o‘qishga majburlash u yoqda tursin, kitob o‘qimasdan turolmay ham qoladi.



**12-QOIDA.** Matn qismlarida DIALOG berilsa, har bir so‘zlovchining nutqi oldiga chiziq (tire) qo‘yib, xatboshidan yoziladi, so‘ng oxiriga vergul yoki undov belgisi va tire qo‘yiladi. Muallif gapi avvalgi satrda bo‘lib, oxiriga ikki nuqta qo‘yiladi. Muallif gapi dialogdagi ko‘chirma gap orasida yoki undan keyin kelsa, ko‘chirma gapdagi kabi tinish belgilari qo‘yiladi.

### Masalan:

Keng hovlining yarmini qoplagan baland so‘rilardan husaynilar, dilkaptarlar va boshqa rang-barang uzumlar tovlanib, g‘uj-g‘uj osilgan.

- Tokni boplagan ekansiz, – dedi O‘ktam.
- Be! – qo‘lini siltab dedi Mirqodir, – O‘zbekistonda necha-necha yuz xil uzum bor. Yana tajriba yo‘li bilan har yili yangi navlarini yetishtiryaptilar...

(Oybek)



### 45. Quyidagi matnni o‘qing, undagi dialogni aniqlang, qay tartibda yozilganini izohlang.

Dehqon arpa, beda, bug‘doyni o‘rib olish uchun bu kunlarda faqat o‘roq so‘rar, boshqa hech qanaqa ish ko‘tarib kelmas edi. Vofurush bir kuni kechqurun kelib tayyor o‘roqlarni chiptaga o‘rayotganida dadam yotig‘i bilan arzini aytdi:

- Bo‘nakka bergen pulingiz ko‘mir bilan temirga ketib qoldi, choychaqaga bir-ikkita o‘roq tashlab ketmasangiz, bola-chaqa qiynalib qoldi.

Vofurush og‘zi yarim ochiq, burnini jiyirganicha dadamga qarab qoldi-yu, anchadan keyin dimog‘i bilan:

- Yana besh-o‘n tanga pul beraymi?
- Yo‘q, qulluq, – dedi dadam, – avval qarzni uzay... Har kuni bir-ikki o‘roq tashlab ketsangiz bas...

(A.Qahhor)



#### 46. Quyidagi matnni o‘qing, ko‘chirma gapli matnni dialogli matnga aylantirib ko‘chiring, qanday o‘zgarishlar qilganingizni tushuntirib bering.

Zulqarnayn yarim kechada o‘z qo‘smini bilan bir g‘ordan o‘tib borar ekan,

“Oyog‘ingiz ostida uchragan narsalardan olib keting”, deya amr qildi. Qo‘shindagilardan bir guruhi: “Ko‘p yurdik, juda charchaganmiz, endi kechasi bilan oyog‘imizdagi narsalarni yig‘amizmi?”, – deb, hech narsa olmadilar. Ikkinci bir guruh: “Qo‘mondonimiz aytgan ekan, biroz to‘play qolaylik, buyruqqa qarshi chiqmaylik. Zero qo‘mondonga bo‘ysunish kerak”, – deb ozgina narsa yig‘dilar. Uchinchi guruh esa: “Qo‘mondon bezizga aytmagandir, bunda qandaydir hikmat bo‘lishi kerak”, – deya to‘rvalarini qo‘lga ilingan narsalar bilan to‘ldirdilar.

Kun yorishganda qarasalarki, oltin konining yonidan o‘tishibdi. Oyoqlariga tekkan narsalar oltin ekan. Buni bilganlarida esa hech narsa olmagan birinchi guruh: “Eh, nega olmadik-a! Nega qo‘mondonimizning gapiga kirmadik, qaniydi olganimiz-da... Bitta bo‘lsa ham olsaydik”, – deb pushaymon bo‘ldilar.

Ozgina olgan ikkinchi guruhdagilar: “Eh, yana ozgina olsak edi. Cho‘ntaklarimizni, xaltalarimizni to‘ldirsak bo‘lar ekan...”, – deb qolishdi. Ko‘p olgan uchinchi guruh esa: “Koshki keraksiz narsalarimizni tashlab yuborsaydik. Bundan ham ko‘proq olib qolsaydik...”, – deya ko‘p olganlariga qaramay, baribir xafa edilar.

---

---

---

---

---

---

---

---

## **47. Berilgan dialog bilan tanishing, nuqtalar o‘rniga tegishli tinish belgilarini qo‘ying.**

... Buvijon, hali hamma yoq yorug‘ ekan-ku, men negadir allaqachon kech kirib, qorong‘i bo‘lgan deb o‘ylabman... – dedi ichkaridan chiqib kelgan Jasur ko‘zlarini ishqalab.

... Iye, bolam, sen uydamiding, nima qilding shu paytgacha? ... Mukarram aya nabirasiga tashvishli qaradi. ... Ranging ham oqarib ketibdi. Chop-poy ichganmisan ishqilib?

... Nonushtadan keyin kirdim-ku. Kecha dadam yangi multfilm yozilgan disk olib kelgandilar. Shuni ko‘rdim. Lekin hali tugamadi.

... Voy, sho‘rim, tushgacha faqat televizorga tikildingmi?

....Televizorgamas, kompyuterga. Buvi, boshim, boshim og‘riyapti ... – Jasur shunday dedi-yu, chayqalib ketdi. Yaxshiyam, buvisi ushlab qoldi....

### **1. Dialogdagi gaplar kimlarga tegishli?**

---

### **2. Ushbu gaplarning kimlarga tegishli ekanligini qanday aniqladingiz?**

---

### **3. “*Matn so‘ngidagi ko‘p nuqta o‘z o‘rnida qolishi lozim*”. Ushbu fikrni siz qanday izohlaysiz?**

---



## **48. Quyidagi gaplar tarkibidagi tinish belgilarining qo‘llanishiga e’tibor bering.**

1. *Burgut tirilib, xuddi odamga o‘xshab gapiribdi: “Rahmat senga, ey odamzod. Sen meni o‘limdan qutqarding, endi o‘la-o‘lgunimcha senga xizmat qilaman”, – debdi.*

2. “*Bu ish uchun qancha mablag‘ kerak bo‘ladi?*”, – deb so‘radi hokim.

3. *U tulkichaga debdi:*

– *Hoy tulkivoy, nega hadeb butaga qarab baqiryapsan?*

**Shunday ko‘rinishdagi gaplarga misollar yozing.**

---

---

---

---

---

---

---



**49. “Onamga yordam berdim” mavzusida dialogdan foydalanib matn tuzing.**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

### **MATNDA TASNIF**



**13-QOIDA. Matn qismlarida tasnif berilsa, tasnif moddalari xatboshidan boshlanadi.**

**Masalan:**

### **BIZNING HUQUQLARIMIZ**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida insonning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilab qo‘yilgan. 1989-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasi tomonidan bola

huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya qabul qilindi.

Bunda bolalarning huquqlari bayon etiladi. Har qanday inson:

- o‘zining va bolalarining xavfsizligi ta’minlanishi huquqiga;
- hammamiz yaxshi hayot kechirish huquqiga;
- yuqori sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga;
- yuqori sifatli va bepul boshlang‘ich ta’lim olish hamda yuqori sifatli umumiy o‘rta ta’lim olish huquqiga;
- bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va hordiq chiqarish huquqiga;
- o‘z fikr-mulohazalarini erkin ifoda etish huquqiga;
- jinsi, dini va irqidan qat’i nazar, hamma uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘lish huquqiga egamiz.

Shuningdek, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar. Bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida belgilab qo‘yilgan.



## **50. Quyidagi matnni o‘qing, tasnif qismini ko‘rsating, qay tartibda kiritilganini izohlang.**

Ertak aytuvchilarni qadimda “ertakchi”, “matalchi” deb atashgan. E’tibor bersangiz, ertaklarda ijobjiy qahramon, albatta, yovuzlik, adolatsizlik, zulm ustidan g‘alaba qozonadi, yaxshilik tantana qiladi. Chunki ertak qahramonlari xalq orzu-umidlarini, manfaatini ifodalaydi.

Ertaklar turli mavzularda bo‘lishi mumkin. Ular shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo‘linadi.

*(5-sinf “Adabiyot” darsligidan)*



## **51. Quyidagi matnni o‘qing, unga foydalanish uchun berilgan masalalarni ifoda etuvchi so‘z birikmalarini tasnif sifatida kiritib ko‘chiring.**

Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari, jumladan, doston va ertaklar ichida ham uchraydi. Topishmoqlar doston va ertaklar mazmunini boyitib, ularning qiziqarliligini ta’minlaydi. Agar esingizda bo‘lsa, doston yoki ertak qahramonlari bir-birlarining aql-

farosatini topishmoqlar orqali sinaydilar. Bu hodisa ko‘proq ertaklarda uchraydi. Topishmoq qatnashadigan ertaklar ikki xilda bo‘ladi: birinchisi topishmoqli ertak bo‘lib, bunda topishmoq ertak ichida keladi. Ikkinchisi ertak-topishmoq hisoblanib, undagi asar voqealari topishmoq asosida qurilgan bo‘ladi.

(5-sinf “Adabiyot” darsligidan)



## 52. Quyidagi chizmaga mos keluvchi dialog tuzishga harakat qiling.

- \_\_\_\_\_ ? – deb so‘radi \_\_\_\_\_ .  
— \_\_\_\_\_, – dedi \_\_\_\_\_ .  
— \_\_\_\_\_ .  
— \_\_\_\_\_ ! – dedi xursand bo‘lib.  
— \_\_\_\_\_ , – deb javob berdi.



**14-QOIDA.** Tasniflarda asosan yopiladigan qavslari arab raqamlari, harflardan, ba’zan oldiga tire qo‘yish usulidan foydalilanildi. Tasnif moddalarining oxirida nuqtali vergul, so‘nggi tasnif moddasi oxiriga esa nuqta qo‘yiladi.

Masalan, **raqamlar bilan:**

- 1) bahor taomlari;
- 2) bahordagi bayramlar.

**Shuning o‘zi harflar yoki tire asosida yozilishi mumkin:**

- a) bahor taomlari;
  - b) bahordagi bayramlar.
- bahor taomlari;
  - bahordagi bayramlar.

**Yuqoridagi holatlarning hammasida xatboshi qo'llanadi. Ba'zan tasnif matn tarkibida xatboshi bilan ajratilmagan holda bayon qilinishi ham mumkin. Bunday paytlarda tasnif moddasi oldiga tire qo'yilmaydi.**

**Rim yoki arab raqamidan keyin nuqta qo'yilsa, tasnifning har bir moddasi oxirida nuqta qo'yiladi. Masalan:**

- I. Bahor taomlari.
2. Bahordagi bayramlar.
- II. Bahordagi bayramlar.
1. Bahor taomlari.
2. Bahordagi bayramlar.



**53. Quyidagi matnni o'qing. Tasnif moddalarining matnga qay tarzda kiritilgani, qanday tinish belgilari qo'yilganini izohlang.**

### **KOMPYUTER XONASIDA SANITARIYA-GIGIYENA TALABLARI**

Inson kompyuterda uzliksiz ishlashi natijasida, o'zi bilmagan holda, tanasiga shikast yetkazib olishi mumkin. Bunga ish o'rnila noto'g'ri o'tirish, uzoq vaqt monitorga tikilish, natijada ko'zlarni zo'riqtirish sabab bo'ladi.

Agar o'quvchi sanitariya va gigiyena talablariga og'ishmay rioya qilsa, shikastlarning oldini olishi, bebafo sog'lig'ini butun umri davomida saqlab qolishi mumkin. Eng muhimi, kompyuter oldida to'g'ri o'tirish zarur. Buning uchun:

- o'rindiqda bukchaymasdan, umurtqa pog'onasini to'g'ri tutgan holda o'tirish kerak;
- kompyuterda ishlaganda monitorga to'g'ri yuzlanish, noubukda ishlaganda esa boshni biroz pastga egib o'tirish lozim;
- ish stoligacha bo'lgan masofa 20 sm.dan kam bo'lmasligi kerak;
- monitordan ko'zgacha bo'lgan masofa 50–60 sm.dan kam bo'lmasligi kerak;
- qo'llarni ish stoliga qo'yganda, tirsaklar tashkil etgan burchak 90–120 gradus oralig'ida bo'lishi maqsadga muvofiq;

- kompyuterda 1 kun davomida 2 yoki 3 soatdan ortiq ishlamaslik, har 20 daqiqada ko‘zga dam berib turish;
- dam olish daqiqalarida ko‘z va tana mashqlarini bajarib turish foydali, buni odatga aylantiring;
- ish o‘rniga faqat toza yuvilgan yoki maxsus antiseptik salfetkalarda artilgan qo‘llar bilan o‘tirish, shuningdek, kompyuter xonasida doimiy ravishda tozalik va tartibga e’tibor berib turish zarur;
- ishni to‘xtatgach, qo‘llarni, albatta, sovunlab yuvish yoki antiseptik moddalar bilan zararsizlantirish muhimdir.

<http://eduportal.uz>



**54. Gaplar, tasnif moddalari chegarasi belgilanmagan quyidagi matnni ko‘chiring. Qo‘yilishi lozim bo‘lgan belgilarni (raqamlar, harflar yoki tire, nuqtali vergul, so‘zlarning tagiga chizish) izohlang.**

#### **A ’lochi bo‘lish uchun tavsiyalar:**

*Maqsadingni bil. Yaxshi o‘qish uchun oldingga katta maqsad qo‘y. Nega mакtabga kelasan? Nima uchun o‘qiysan? Kelajakda kim bo‘lmoqchisan? Bu haqida jiddiy o‘ylab ko‘r, ota-onang va o‘qituvchingdan maslahat ol. Chunki aniq maqsadsiz hayotda biror narsaga erishib bo‘lmaydi.*

*Savol berishdan uyalma. So‘rab-so‘rab bilgan – olim, so‘ramagan o‘ziga zolim degan naql bor. Unutma, a’lochilar ning eng yoqtirgan savollari – “Nega?”, “Qanday?”, “Qachon?”. Biror darsga tushunmay qolsang, kerak bo‘lsa, 100 marta savol ber, ammo shu darsni o‘zlashtir.*

*Tartibli bo‘l. Har narsada bo‘lgani kabi, o‘qishda ham tartib bo‘lishi kerak. Yaxshi o‘quvchi mакtabga borib kelishda ham, kiyinishda ham, dars tayyorlashda ham tartibli bo‘ladi. Sen ham o‘z kun tartibingni belgilab ol.*

*A’lochilar bilan do‘sit bo‘l. Eng yaqin do‘siting a’lochi bo‘lsa, sen ham uningdek o‘qishga harakat qilasan. U bilan bирgalikda dars qilasan. Bilmaganingni so‘raysan, maslahatlashasan. Kunlar o‘tib o‘zing ham u kabi a’lochiga aylanasan.*

*Uy vazifalarini o‘z vaqtida bajar. Bu juda muhim. O‘tilgan darslar uy vazifalari bilangina mustahkamlanadi. Hech qachon vazifalarni yig‘ib qo‘yma va bugungisini ertaga qoldirma. Ikkichilar shunday qiladi!*

*Sog‘lom yasha. Sog‘tanda – sog‘lom aql. Bir sutkada 8 soatdan kam yoki ko‘p uxlama. O‘z vaqtida ovqatlan. Ust-boshingni toza tut. Me‘yorida o‘qi, o‘rgan. Vaqtি kelsa, dam ol, do‘srlaring bilan o‘yna.*  
*(“Jajji akademik” jurnalidan)*



### **55. To‘g‘ri ovqatlanish qoidalarini tasnif tarzida yozing, qo‘ygan belgilaringizni izohlang.**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

## **MATNDA SHE’RIY MISRALARNI JOYLASHTIRISH**



**15-QOIDA.** Matnning biror qismiga kiritilmoqchi bo‘lgan ikki misradan to‘rt misragacha she’riy parcha unda yo ko‘chirma gap yoki ustun shaklida joylashtiriladi. Ko‘chirma gap tarkibida har bir she’riy misra bosh harf bilan yoziladi.

Masalan, **ko‘chirma gap shaklida:** *Shoir Hamid Olimjon “O‘rik gullaganda” she’rida bahor tongini ta’sirchan tarzda shunday tasvirlaydi: “Novdalarni bezab g‘unchalar Tongda aytdi hayot otini Va shabboda qurg‘ur ilk sahar Olib ketdi gulning totini”.*

## **Ustun shaklida:**

Mirtemirning lirik merosida tabiat manzalari va bolalik xotiralari bilan bog‘liq she’rlar salmoqli o‘rin egallaydi. Uning o‘zi “Baliq ovi” she’rida yozganidek:

Bizning qishloq tog‘ bag‘rida,  
Tog‘ bag‘rida – bog‘ bag‘rida.  
Etagida chopqillar soy,  
Yozda tiniq, kuzda tiniq.

Demak, shoир Turkistonning Iqon qishlog‘idagi Qoratog‘ etaklarida tug‘ilib o‘sgani, ya’ni tabiatning barcha go‘zalliklaridan bahramand bo‘lganini yodga olarkan, she’rlarida ana shu mavzularning yetakchilik sababini tushuntirgandek bo‘ladi.

(5-sinf “Adabiyot” darsligi)



## **56. Quyidagi matnni o‘qing. Ko‘chirma gap tarkibida berilgan she’riy misralarni aniqlang va matnga qay tartibda kiritilganini, tinish belgilarini izohlang.**

Shayxzoda she’ridagi “Kunduzlar tunlarning sochin taramay, O‘polmas tonglarning pushtirang labin” qabilidagi juda go‘zal obrazli topilma o‘quvchilarda fikr uyg‘otibgina qolmay, unda hissiyotlar silsilasini ham hosil qiladi...

...Shoirning tasvirlash mahoratini uning she’rlaridagi “Havoni qaychilab qanoti bilan Xo‘rozlar qichqirdi daraxt shoxida” singari juda hayotiy va esda qoladigan obrazlar tasviri misolida ham kuzatish mumkin. Shoир “Uymalangan qator tashbihlar Karvon erur sarbon istaydi. Shitirlagan bargdan to‘kilgan Qofiyalar meni qistaydi” singari satrlarda ham o‘zining kayfiyat uyg‘otish, munosabat hosil qilish borasidagi san’atini namoyish etadi.

(“Yoniq so‘z” kitobidan)



## **57. Quyidagi matnga o‘zingiz yoqtirgan biror she’r yoki berilgan she’rning misralaridan kiritib, matnni davom ettiring.**

Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelardim. U xuddi noyob narsaga ega bo‘lgandek, uzoq duo qiladi,

*birpasda hamma qo'shnilariga ko'z-ko'z qilib chiqadi, shundoq "mehribon" o'g'li borligini aytib maqtanadi. Shunda qor gupillab yog'ib turgan mudhish kecha, onamning qip-qizil go'shtga aylanib ketgan oyoqlari ko'z o'ngimga keladi-yu, indamay chiqib ketaman.*

*(O'. Hoshimov)*

*O, ona, hech biri emasdur shirin  
"Bolam!" deb bir og'iz aytgan so'zingdan!  
O, ona mehringda quyosh yashirin,  
Ne ajab gul unsa har bir izingda!*

*(Shuhrat)*

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

 **58. Vatan haqidagi fikringizni ushbu she'riy parcha yordamida ifodalashga urinib ko'ring. She'riy misralarni ko'chirma gaplar shaklida yozib ifodalang.  
(She'riy misralardan so'ng qavs ichida shoirning nomi ko'rsatiladi)**

*Dunyo kezib go'zal-go'zal yurtlar ko'rdir,  
Jannatmonand o'lkalarda hayron yurdim,  
Ammo, sendek yuragimga aziz bo'lgan  
Biror yurtni topolmadim, ona yurtim!*

*(Xurshid Davron)*

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---



**16-QOIDA.** She'r matnga muallif gapidan keyin ikki nuqta qo'yib, xatboshidan kiritiladi.

**Masalan:** *Shoir Erkin Vohidov "Tasavvur" she'rida shunday yozadi:*

Bolalik ekan-da,  
Muallimimdan  
So'rabman bir kuni:  
– Ayting-chi, agar –  
– Yer shunday tezlikda aylansa chindan,  
Ne uchun to'kilib ketmas odamlar?

**Matnda avval she'r berilib, keyin muallif so'zi berilsa, muallif so'zi xatboshidan emas, balki yangi satr avvalidan yoziladi. Bunda she'r oxirida dialogda bo'lgani kabi finish belgilari qo'yilmaydi.**

Masalan:

“She'rni sevib o'qiyman, ammo  
Hayron qilar bir holat meni.  
“Men” deb yozar shoir doimo,  
Kimdir o'sha shoirning “men”i? –  
deb yozadi shoir “Lirk qahramon” she'rida.



**59. Quyidagi matnni o'qing. She'r matnga qay tartibda kiritilganini, qo'yilgan finish belgilarini izohlang. Matn qaysi bosh mavzuda yozilganini aniqlang.**

Usmon Nosir to'g'risidagi darsimizni shoir hayoti va ijodini chaqmoqqa qiyoslash bilan boshlagan edik. Qarangki, shoirning o'zi “Yurak” nomli she'rida:

Itoat et! Agar sendan  
Vatan rozi emas bo'lsa,  
Yoril! Chaqmoqqa aylan sen,  
Yoril! Mayli, tamom o'lsam! –  
deya qalbiga xitob qilgan edi.

(5-sinf “Adabiyot” darsligidan)



## 60. Quyidagi she'riy misralarni avval, muallif gapini keyin joylashtirib, ko'chirma gap tuzing.

Yosh ko'nglimda orzularim mo'l,  
Quyosh erir yurak taftimga.  
Men osmonga uzatganda qo'l,  
Sayyoralar qo'nar kaftimga.

(Erkin Vohidov)

---

---

---

---

---



## 61. “Ona tilim o’lmaydi” mavzusida kichik matn tuzing.

Unda quyidagi she'riy parchalarning biridan foydalaning.



*Ona tilim, omon bo'l mangu,  
Sen borsan-ki, men ham o'ln  
Tildan qolsam, seni Oybekda  
Men ko'zlarim bilan so'ylayi*  
(Xurshid)

*Ona tilim – yurak qatimdan  
Mehr bo'lib sochilgan jarang.  
Qulog'imga go'dak paytimdan  
Alla bo'lib singigan ohang.*  
(Iroda Umarova)

---

---

---

---

---

---

---



**62. “Adabiyot” darsligidan matnga kiritish uchun she’riy misralar tanlang va yozing. Har biri ikki yoki to‘rt misrali bo‘lsin.**

---

---

---

---

---

---

---

---

---



**63. Quyidagi mavzularda yoziladigan ijodiy matnga she’riy misralar tanlang: “Vaqt qadri”, “Otamning o‘giti”, “Nima uchun kitob o‘qiyimiz?”.**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---



**64. Quyida berilgan matn mavzusiga mos keladigan to‘rtlikni matn tarkibiga kriting. Bunda she’riy misralarni kiritish qoidalariga rioya qiling.**

### **SUV – HAYOT MANBAI**

Biz turmushimizni suvsiz tasavvur eta olmaymiz. Suv bo‘lмаган joyda hayot ham bo‘lmайди. Jonzotlar ham, о‘симликлар ham SUV bilan тирик. Lekin u bitmas-tuganmas manba emas. Shu bois, suvni

qadrlashimiz kerak. Qadimda bobolarimiz ariq qazib, hovuzlarda suv saqlashgan. Hovuz chetlariga ekilgan tollar suvning singib ketishiga yo‘l qo‘ymagan. Tolning ildizlari suvni ifloslantirmagan. Suvni bulg‘agan odam esa jazolangan ekan.

Hammaga ravshanki, tabiatda biz uchun suvdan ham qimmatli, muqaddas ne’mat yo‘q. Hayotimizning farovonligi, sog‘lom turmush tarzimiz, atrof-muhit go‘zalligi va tozaligi suv bilan bog‘liq. Arzon energiya olish, yerlarni o‘zlashtirish, ayniqsa, dehqonchilikni kengaytirish, shahar va qishloq aholisini ozuqa bilan ta’minalash, sanoat korxonalarining ishini me’yorlashtirish, baliqchilik xo‘jaligini yuksaltirish va boshqa ko‘plab hayotiy chora-tadbirlarni suvsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Aziz tengdoshlarim, bebaho boyligimiz bo‘lgan suvni qadrlash, tabiatni asrash va suvni tejash har birimizning burchimizdir.

(Y. Mahmarizayeva)



**Quyosh yerni qizdirsa,  
Chechaklar so‘lg‘in bo‘lsa,  
Yerlar qovjirab qolsa,  
Unga ayting ne kerak?  
Albat, albat, suv kerak.**



**17-QOIDA. She’r odatdagidek satr avvalida xatboshidan emas, satr o‘rtarog‘idan yozilishi ham mumkin. Bunda misralar ustun shaklida bir tekisda joylashadi.**

Masalan:

Ona tilim – onajonim tili bu –  
Beshikdanoq singgan jon-u quloqqa.  
El-u yurtim, xonumonim tili bu,  
Qadimlikda o‘xshar ona tuproqqa.

(Mirtemir)



## 65. Quyida satr o‘rtarog‘idan yozilgan she’rni xatboshidan joylashtirib ko‘chiring.

Odam bilan ulg‘ayar makon,  
Dunyolarga doston bo‘ladi.  
Erkli elning go‘dagi sulton,  
Sultoni mard inson bo‘ladi.  
Dahri dun hammadan qoladi,  
Bizdan ozod Vatan qoladi!

(M.Yusuf)

---

---

---



## 66. Quyidagi matnga 2 banddan (8 misradan) iborat she’rni satr o‘rtarog‘idan yozib kriting.

*Bolalar yozuvchisi T.Adashboyev yosh ijodkorlarga ham ko‘p maslahatlar bergan. O‘zi ham so‘z tanlashga, chiroyli o‘xshatishlar va boshqa tasvir vositalari topishga, yoqimli jumlalar tuzishga harakat qilgan, shuning uchun adibning yozgan asarlari bolalarga yoqadi.*

Bolalarga she’rlar yozsang,  
Mavzu turfa, yangi bo‘lsin.  
Qizg‘aldoqday yonib turgan  
Ko‘rki bilan rangi bo‘lsin.  
Har bandida, satrlarda  
Maqsad tayin, qisqa bo‘lsin,  
Sho‘x, o‘ynoqi, rostgo‘ylikda  
Ibratli gap – nusxa bo‘lsin.

(T.Adashboyev)

## MATNGA RIVOYAT, HADIS, MAQOL VA MATALLAR, HIKMATLI SO‘ZLARNI KO‘CHIRMA GAP SHAKLIDA KIRITISH



**18-QOIDA.** Matnga rivoyat, hadis, maqol va matallar, hikmatli so‘zlar asosan ko‘chirma gap shaklida kiritiladi. Bunda muallif gapi oldin, ko‘chirma gap keyin yozilsa, muallif gapidan keyin ikki nuqta qo‘yilib, ko‘chirma gap qo‘shtirnoq ichiga olinadi: *Shunday maqolga rioya qilmoqchiman: “Til bilgan el biladi”*.

Ko‘chirma gap (maqol) she’riy shaklda bo‘lsa, muallif gapidan keyin ikki nuqta qo‘yilib, ko‘chirma gap (she’r) xatboshidan qo‘shtirnoqqa olinmay yoziladi:

*Shunday maqolga rioya qilmoqchiman:*

*Til bilgan*

*El biladi.*



**67. Bo‘sh o‘rnlarni to‘ldirib gaplarni o‘qing.  
Kiritilayotgan ko‘chirma gap nima ekanligini aniqlang  
va qo‘yilgan tinish belgilarini izohlang.**

Hadislardan birida shunday deyiladi:

---

---

---

---

---

---

, degan maqol bor xalqimizda.

Do‘st orttirish haqida shunday hikmat bor:

---

---

---

Shuni aslo unutmang:

---

---

---

Inson hayoti davomida kimgadir yordam berib yashashi kerak.  
Zero,

---

---

Hunarli bo‘lishning fazilati haqida \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ deyiladi.

### *Qo‘yish uchun:*

1. Do ‘stlikdan o ‘tadigan hech narsa yo ‘q, shuning uchun do ‘st orttirish imkoniyatini sira qo ‘ldan boy berma. 2. Badanning quvvati – ovqat, aqlning kaliti – hikmat. 3. G‘ayratlining yuragi qaynar, G‘ayratsizning yuragi o ‘ynar. 4. Ilm ibodatdan afzal. 5. Har kimning zari bo ‘lmasa-da, hunari bo ‘lsin. 6. Guli yo ‘q bo ‘stondan yaproq yaxshi, foydasi yo ‘q yo ‘ldoshdan tayoq yaxshi.



### **68. Quyida berilgan gaplarning yozilishiga diqqat qiling. To‘g‘ri – “T” yoki noto‘g‘ri – “N” belgisini qo‘ying.**

GAPLAR	“T” yoki “N”
Shunday hadis bor Odamlar bilan murosa-yu madoraga kirishish ham sadaqa hisoblanadi.	
Xalqimizda shunday maqol bor: Baxil topsa, bosib yer; Saxiy topsa, barcha yer	
Rejasiz ish – qolipsiz g‘isht degan maqol bejizga aytilmagan.	
Xalqimizda shunday naql bor: “Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda?”	

“Aqlli qariya – oqib turgan daryo” degan hikmat bejizga aytilmagan.	
Sharqda shunday hikmat bor: “Duo olgan omondir, qarg‘ish olgan yomondir”.	



## 69. Mavzuga mos rivoyatlarni tanlang.

1	Rivoyatlar	O‘zaro moslik raqami	Mavzular
1	<p>Bir muruvvatli, saxiy odamning juda ko‘p doni bor edi. U turgan shaharda oziq-ovqat tanqisligi boshlandi. Saxiy odam bor g‘allasini beva-bechoralarga ulashib tugatdi. Tanqislik kuchaygach, o‘zi ham donga muhtoj bo‘lib qoldi. Odamlar uni malomat qilishdi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Bilib turib nega donlaringning hammasini ulashib yubording?</li> <li>Saxiy kishi dedi:</li> <li>– Xalq och bo‘la turib, men rohatda yashasam, insofsizlik qilgan bo‘lamon. Ochlik azobini xalq bilan barobar tortishni, xalq qayg‘usiga sherik bo‘lishni vijdonim buyurdi. Men vijdonim amriga itoat etdim.</li> </ul>		“Vaqt qadri”
2	<p>Bir dehqon qo‘sh haydab turgan edi. Ittifoqo uning dalasi yonidan hukmdor o‘tib qoldi. U dehqonga: “Hormang!” – dedi. Dehqon eshitmaganga olib: “Xo‘sh, jonivor!” – deb ho‘kizlarini qaytarib, yerini haydayverdi.</p> <p>Hukmdor ikkinchi marta ham “Hormang!” deb ko‘rdi. Bu gal dehqon bosh qimirlatib qo‘ydi. Hukmdor achchiqlanib jo‘nab ketdi. Saroya borib dehqonni tutib kelish uchun mulozimlarini</p>		“Mehr”

	<p>jo‘natdi. Ular dehqonni saroyga olib borishdi.</p> <p>Hukmdor unga jahl bilan dedi: “Ikki marta “Hormang!” desam ham, bir marta “Bor bo‘ling!” deyishga yaramading. Meni mensimadingmi?”</p> <p>Dehqon:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– O‘sha vaqtida yerimning obi-tobi joyida edi. Sizga “Bor bo‘ling!” desam, vaqtim ketib, yerim tobidan qochardi. Mana, yerimni haydab bo‘ldim. Qancha “Bor bo‘ling!” kerak bo‘lsa, olavering. “Vaqting ketdi – baxting ketdi” degan maqolni eshitmaganmisiz?</li> </ul> <p>Hukmdor vaqtini qanchalik qadrlashini ko‘rib, dehqonni afv qildi va unga tasannolar aytdi.</p>		
3	<p>Bir odam maslahat so‘rab donishmandning huzuriga boribdi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Ey ulug‘ zot, – debdi u. – Mening farzandlarim ko‘p. Nima qilsam, ulardan mehr-oqibat, e’tibor ko‘raman?</li> </ul> <p>Donishmand o‘ylab turib javob beribdi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Mehr ko‘ray desang, farzandlaring qalbiga mehriгиyo urug‘ini soch.</li> </ul>		<p><b>“Bir imo orqali anglangan haqiqat”</b></p>
4	<p>Husayn Boyqaro doimo Navoiyning gaplariga qulqolar ekan. Bir kuni ertalab podshoh saroyga kirib kelayotib, Navoiyga qarabdi-da, ko‘rsatkich barmog‘i bilan boshini ko‘rsatibdi. Shunda Navoiy tilini chiqarib qo‘yibdi. Boyqaro ma’qullagannamo boshini qimirlatibdi. Bu voqeani zimdan kuzatib turgan Navoiyning shogirdlari bu imo-ishoraning sababini so‘rabdilar. Navoiy shunday deb javob beribdi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Hukmdor boshga doim baloni nima keltiradi? – deb so‘ragan edi, men darhol “Til!” deb javob berdim.</li> </ul>		<p><b>“Vijdon amri”</b></p>



## 70. Turli mavzulardagi insholarga mos keladigan 4 ta maqol tanlang va namunadagidek yozing.

Xalqimizda shunday maqol bor:

To 'g'ri o 'sgan gul bo 'lar,  
Egri o 'sgan kul bo 'lar.



1

---

---



2

---

---



3

---

---



4

---

---



## 71. Turli mavzulardagi insholarga mos keladigan 5 ta maqol tanlang va namunadagidek yozing.

Shunday maqolga rioya qilmoqchiman: “Bardoshliga yog 'lik osh, Sabrsizga osh ham tosh”.



1

---

---



2

---

---



3

---

---



4

---

---

5



## 72. Quyidagi matnni o‘qing. Unga hadis kriting. Gaplar va qismlar chegarasini belgilab ko‘chiring. Matnga reja tuzing.

Taqdir taqozosi bilan inson o‘z yurtidan yiroqlarda yashab qoladigan bo‘lsa, uning vujudida Vatanidan meros bo‘lib kelgan tuyg‘u va fazilatlar qayta uyg‘onadi va uni ona diyori bag‘riga da’vat etadi bunday holni ba’zida “Ota-bobolarimizning ruhi chorlamoqda” deb ham izohlaydilar sizning “Adabiyot” darsligingizda gurji yozuvchisi Nodar Dumbadzening “Hellados” – “Vatan” nomli hikoyasi bor unda insonga xos ana shu holat juda ta’sirli qilib tasvirlangan “Hellados” Gretsiya davlatining qadimiy nomi uni qadimiy Ellada ham deydilar e’tiborli jihat shundaki, bu hikoya Gretsiya haqida emas, balki yurakdagagi Hellados – ko‘ngildagi Vatan haqidadir.

<http://ziyonet.uz>



## 73. Quyidagi matnni o‘qing. Unga maqol yoki hikmatli so‘z kriting. Uni ko‘chirma gap shaklida yozing.

*E’tibor qilsak, bizning xalqimizda ham birlik, hamkorlik va hamjihatlik, maqsad sari qat’iy intilish milliy tabiatimizga, o‘ziga xos fazilatga aylanib ketganini ko‘ramiz. ...Ana shunday hikmat durdonalarini yaratgan xalqimiz tafakkuridan oziqlanadigan milliy g‘oyamiz bizni yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo‘lida bir tan-u bir jon bo‘lib xizmat qilishga undaydi.*

(A.Rasulov)

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

#### **74. Quyida berilgan hikmatli so‘zlar asosida ko‘chirma gaplar tuzing.**

- Ilm o‘rganish har bir musulmon uchun farzdir. (*Hadis*)
  - Kitob odamni – bilag‘on, suhbat – topqir qiladi, yozib olish odati esa uni aniqlikka o‘rgatadi. (*Bekon*)
  - Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to‘plab avlodlarga yetkazadi. (*Oybek*)
  - Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirdor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. (*Amir Temur*)
  - She’r shoир qalbida tug‘ilgan hayotiy tuyg‘ularni ifoda qiladi va shu bilan o‘quvchi yuragini rom qiladi. (*Erkin Vohidov*)
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
-



**75. “Ilmning foydasi” mavzusida kichik matn tuzing. Unga ikki misra she’r yoki hikmatli so‘z topib kriting.**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

## **KO‘CHIRMA GAPDA TINISH BELGILARINING QO‘LLANISHI**



Ko‘chirma gap muallifning o‘zi o‘ylagan fikrlari, o‘yayoli mazmunida berilganida ... *deb o‘yladi*, ... *deb xayol qildi*, ... *deb fikr-mulohaza qildi*, ... *deya xavotir oldi yoki .... degan fikrdaman*, .... *degan gap*, .... *deganday bo‘ldi*, .... *deganday ishora qildi* kabi so‘z shakllaridan foydalaniladi. Shu ko‘rinishda berilgan ko‘chirma gaplarda ko‘chirma gap qo‘shtirnoqqa olinadi, undan keyin yoki undan oldin hech qanday tinish belgisi qo‘yilmaydi. Masalan:

*Shunda olim “Men bu xususda avval ustozimning fikrini bilishim kerak” deb o‘yladi.*

*“Ilmning boshi odob” degan gap hammamizga tegishli. Xalqimizda “Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas” degan ajoyib maqol bor.*

Agar ko‘chirma gap so‘roq yoki undov mazmunida bo‘lsa, qo‘shtirnoqdan oldin so‘roq yoki undov belgisi qo‘yiladi.

*“Sport bilan shug‘ullanishning qanday foydasi bor?” degan savol bilan murojaat qildi ustozim.*

*“Nahotki, men ham matabning qurilishiga o‘z hissamni qo‘sha olsam!” deb xursand bo‘lib ketdim.*



## 76. Berilgan gaplarda tushib qolgan tinish belgilarini o‘z o‘rniga qo‘ying.

1. *U qumga... ...Bugun do‘stim menga tarsaki tushirdi... deb yozdi.*
2. *Bog‘larda qizil shaftolilar, olting rang o‘riklar yaproqlar ortidan xuddi ...Meni yeng!... deganday tovlanadi.*
3. – *Yur, futbol o‘ynaymiz... – dedi qo‘lida koptok tutgan bola.*
4. – *Nahotki, buloq menga quvvat berib turgan bo‘lsa... deb o‘ylanibdi u.*
5. *Bir kuni chol: ... Men qarib qoldim, endi og‘ir ishga yaramayman... deb xavotirga tushibdi.*



## 77. Berilgan matnni o‘qing. Ko‘chirma gaplarning yozilishidagi xatolarni aniqlang va to‘grilang.

### ILMSIZLIK ZULMATI

Qadim zamonda o‘qish va yozishni yomon ko‘radigan bir bola bo‘lgan ekan. U turli bahonalar bilan mакtabga bormas, borganda ham berilgan vazifalarni bajarmay, faqat yomon baho olar ekan. Ota-onasining tanbehlariga qulq solmay, “Men katta bo‘lsam, cho‘pon bo‘laman, qo‘y boqish uchun o‘qish kerak emas” – der ekan.

Bir kuni uylari yaqinidagi o‘tloqdan qo‘ziqorin terib kelish uchun chiqibdi. Qo‘ziqorinlarni terib yurib, uylaridan ancha uzoqlashib ketibdi. Yurib-yurib uncha chuqur bo‘lmagan bir daryo sohiliga yetibdi. Narigi sohildan ham qo‘ziqorin termoqchi bo‘lib ko‘prik qidiribdi. Yaqin atrofdagi ko‘prik oldiga borib qarasa, uning chetidagi taxtachaga nimadir yozib qo‘yilgan ekan. Bola yozuvni o‘qiy olmabdi va to‘g‘ri narigi sohilga qarab yuribdi. Ko‘prikning o‘rtasiga kelganda u sinib, bola suvgaga tushib ketibi. Ovozining boricha yordamga chaqiribdi. Shu orada qo‘ylarini o‘tlatib yurgan bir cho‘pon kaltagini uzatib, bolani suvdan chiqarib olibdi va: “Nega bu ko‘prikdan o‘tding?! Ko‘prik ustidagi “Bu ko‘prikdan yurmang, nariroqda yangi ko‘prik bor”, degan yozuvni ko‘rmadingmiz?”, deb so‘rabdi. Bola unga javoban “Ko‘rdim, lekin o‘qiy olmadim, chunki men o‘qishni bilmayman” – debdi. Shunda cho‘pon unga: “E bolam, hatto qo‘y boqish uchun ham o‘qish kerak”, – debdi.

(D.Xolmatova)



**78. Berilgan gaplardan ... deb o‘yladi, ... deb xayol qildi, ... deb fikr-mulohaza qildi, ... deya xavotir oldi yoki .... degan fikrdaman, .... degan gap, .... deganday bo‘ldi, .... deganday ishora qildi kabi birliklar yordamida ko‘chirma gap hosil qilib yozing.**

1. Yetti o‘lchab bir kes.
  2. Vatanimizning taraqqiyotiga o‘z hissamni qanday qo‘shmoqchiman?
  3. Mehmonlarni kutib olish odobi.
  4. Salomatlik – bebaho boylik!
  5. Hamjihatlik va ahillik – yaxshi odat.
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 
- 



**79. “Bobomning nasihatlari” mavzusida matn yarating. Unda ko‘chirma gaplardan foydalaning.**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---



**19-QOIDA.** Ba'zan ko'chirma gap muallif gapidan oldin kelganda, o'zlashtirma gapda bo'lgani kabi qo'shtirnoq yopilgandan keyin vergul va tire qo'yilmaydi. Masalan: "Jannat onalar oyog'i ostida" deb bekorga aytilmaydi.

Muallif gapi ko'chirma gapdan avval kelsa, muallif gapidan keyin ikki nuqta qo'yimasligi ham mumkin: *Xalqimizda "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli" degan maqol bor.*



**80.** Insho yozish yoki matn tuzishda maqollarni ushbu tartibda kiritish mumkin. Namuna asosida xuddi shunday maqollarni yozing.

*Namuna:* Xalqimizda "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli" degan maqol bor.



	_____
	_____
	_____
	_____
	_____



	_____
	_____
	_____
	_____
	_____



	_____
	_____
	_____
	_____
	_____



## 81. Ba'zan ko'chirma gap muallif gapidan oldin kelganda, qo'shtirnoq yopilgandan keyin vergul va tire qo'yilmaydi. **Namuna asosida xuddi shu tartibda maqollardan yozing.**

*Namuna:* “Odob bilan baxt topilar, Sabr bilan – taxt”  
degan maqol bejizga aytilmaydi.

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_
4. \_\_\_\_\_
5. \_\_\_\_\_



## 82. Matnda qo'llangan ko'chirma gaplarni aniqlang, kerakli finish belgilarini qo'ying.

Qadim zamonda bir podshoh bo'lган екан. Bir kuni u tush ko'ribdi. Tushida og'zidagi tishlari bitta-bitta to'kilib tushibdi. Podshoh tezda tush ta'birini aytuvchini chaqirib, unga tushini aytib beribdi. Ta'birchi uning so'zlarini tinglab.... Shohim, bardam bo'ling, tez orada siz yaqinlaringizdan ayrilar ekansiz .... debdi. Uning bunday sovuq xabaridan g'azablangan shoh boshqa ta'birchini chaqirtiribdi. Unga ham ko'rgan tushini aytib beribdi. Ta'birchi shohning gaplarini tinglab shunday debdi Shohim, siz qarindoshlar ichida eng uzoq umr ko'ruchisi bo'lar ekansiz – debdi. Bu gap shohga yoqib, u ta'birchiga sovg'a-salomlar beribdi.



## 83. Matndagi dialogli gaplarni ko'chirma gaplarga aylantirib ko'chiring.

Ko'rgazma xonalari bo'ylab olib yurgan muzey direktori tomoshamiz oxirlab qolganda:

- Xohlasangiz Bibixonimni ko'rsataman? – dedi.
- Nima? – degancha men unga tikilib qoldim. Bu ahvolimni ko'rib, yo'ldoshimning yuziga tabassum yoyildi.
- Bibixonimni-da...
- Iloji bo'lsa tezroq... – dedim sabrim chidamay.

Muzey direktori meni xonalarning biriga olib kirdi va burchakda turgan, ustida mato tashlab qo'yilgan to'rtburchak quti oldiga boshlab bordi.

(Xurshid Davron)

---

---

---

---

---



#### **84. Matnga kiritilgan ko‘chirma gaplarni topib, kerakli tinish belgilarini qo‘ying.**

Oltindan qadrli, javhardan qimmatli bir narsa bor bo‘lsa, u ham bo‘lsa vaqtdir. Vaqt bizning har turli ishni qilishga kuchimiz yetadigan fursatdir. Bir soatning bekor o‘tgani – ixtiyorimizda bo‘lgan fursatning zoye bo‘lganini bildiradi. Holbuki, shu fursat ichida foydali ishlarga ixtiyorimiz bor edi. Fursatni g‘animat bilgan odam vaqtidan unumli foydalana oladi. Vaqt qadrini bilgan odam havoyi nafsdan tiyila oladi. Vaqt qadrini bilgan odam buyuk bo‘lishga haqlidir. Aqlsizlikning eng yomon ko‘rinishi – vaqtni bekor o‘tkazishdir. Shoир aytganidek Garchi piyodamiz, garchi otliqmiz Kim yaxshi, kim esa yomonotliqmiz Qanchalar fursatni o‘tkazdik zoye Allohning oldida yomonotliqmiz...

Miqdori ko‘p narsa qadr-qiyimatini tez yo‘qotadi. Har bir musulmon uchun vaqt eng qimmat tushunchadir. Ammo aql egalari uchun vaqt hech qachon qadrsizlanmaydi. Yuz yil qancha qimmatga ega bo‘lsa, soat yoki daqiqaning qadri ham shu kabidir. Vaqt odamiga qarab eng qimmat yoki eng arzon matohdir.

Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom Ikki narsa borki, ko‘pchilik uning qadriga yetmaydi Biri – sog‘lik, ikkinchisi esa – bo‘sh vaqt deb marhamat qilganlar.

<https://naqshband.uz>



#### **85. Quyidagi matallardan foydalanib matn tuzing. Tinish belgilarining qo‘llanishiga e’tibor bering.**

Go‘sht suyaksiz bo‘lmas, sholi – kurmaksiz.

Gul tikonsiz bo‘lmas.

Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘.

*Betashvish bosh qayda,  
Mehnatsiz osh qayda*



## 86. Muallif gapini ko‘chirma gaplardan oldinga olib ko‘chiring.

1. “Kitob – beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladi”, deb yozadi buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy.

- 
- 
- 
- 
2. “Bizning zamонимизда bunday sharoit qayda edi deysan, bolam?! Biz bir kitobni o‘n-o‘n besh kishi navbat bilan o‘qir edik. Badiiy kitoblarni o‘qishga imkonimiz bo‘lmagan. Qizim, sen shunday zamonda yashayapsanki, nima xohlasang bari mujassam. Buning uchun shukronalar aytishimiz kerak. Kitobni sev, uni ardoqla. Toki hayoting kitobdagidek mazmunli o‘tsin”, der edilar bobom.

<https://bolalardunyosi.uz>

---

---

---

---

---

3. “Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do‘stlardir” deb yozadi V.Gyugo.

---

---

---

---

---



## 87. Quyidagi Hamid Olimjonning qalamiga mansub she'riy misralarni ko'chirma gap shaklida yozing.

Vodiylarni yayov kezganda,  
Bir ajib his bor edi manda...  
Chappar urib gullagan bog'in,  
O'par edim vatan tuprog'in.  
Odamlardan tinglab hikoya  
O'sar edi shoirda g'oya.  
Daryolardan kuylab o'tardim,  
Ertaklarga quloq tutardim.  
Hammasini tinglardim, ammo,  
O'xshashini topmasdim aslo.

---

---

---

---

---

---

---

## 88. Quyidagi matnni o'qing. Asar qahramonining o'y-xayollari qay tarzda berilganini izohlang. Matn qismlarini kichik mavzular bilan atang.



“Bugun yana Shoira navbatchi ekan-da” deb o'yladi Sherzod.

Umuman, Shoira navbatchilik qilmagan kun kam bo'lardi. U goh birinchi qavatda, goh bemorlarni qabul qiladigan bo'limda ishlardi.

“Sayfi Soqiyevichni ko'rib bo'lguncha chiqib tursam ham bo'lardi” deb o'yladi Sherzod o'sha tomonga qarab. Sayfi Soqiyevich professorga termilib yotar, ko'zlarida shu qadar ma'yus o'tinch, shu qadar iltijo bor ediki, Sherzodning unga beixtiyor rahmi kelib ketdi. “To'yda so'yiladigan qo'y qassobga shunaqa tikilsa kerak” deb o'yladi Sherzod. U xayoliga kelgan bema'ni fikrdan o'zi kului.

(O'. Hoshimov)

---

---

---

## MATN QISMLARIDAGI GAPLARNING IZCHILLIGI



**20-QOIDA.** Matnda, uning qismlarida fikr muayyan izchillikdagi gaplar tarzida bayon qilinadi.

**89.** Ikki ustunda berilgan matnlarni o'qing. Qay biri tushunarli, qay birini tushunish qiyinligini aniqlang, sababini izohlang. Chap ustundagi gaplar tartibini o'zgartirib, tushunarli holga keltiring.

Nurmatning yuzlari qizarib ketdi. Ilhom aka o'z odaticha so'zsiz, undan javob kutardi. Boshini quyi solganicha indamay turardi. Anchadan keyin:

- Endi bunaqa qilmayman,
- degandagina dadasi joyiga borib o'tirdi.

Nurmat buni sezib turibdi-yu, faqat tiliga hech gap kelmasdi... (R.Fayziy)

Nurmatning dadasi Ilhom aka deraza pardalarini tortib qo'ydi-da, divanga yonboshlab kitob o'qiy boshladi. Havo ochiq. Bahor quyoshi hamma yoqni ilitib, tarnovlarga osilib yotgan uzun-uzun sumalaklarni, yerda qolgan qorni eritmoqda. Ko'chada bolalar o'yin qilib yurishibdi. Har zamonda ularning shovqini qulogqa chalinib qoladi... (R.Fayziy)



**90.** Quyidagi gaplarni mazmuniga qarab matn shaklida qismlar bo'yicha izchillik bilan joylashtirib chiqing. Xatboshilarga e'tibor bering.

1. "Jon" so'zi jondan chiqsa, ota-onaning joni farzand joniga baraka bag'ishlaydi.

2. Endi ota-onani tilga olganda ishlatiladigan so'zlarga kelsak, otaga nisbatan "boboy", onaga nisbatan "kampir" singari so'zlarni ishlatish nutq odobidan, xususan va umuman, odobdan tashqaridir.

3. Bular nutq odobiga daxldor ijobiy hodisalardan hisoblanadi.

4. Ota-onaga murojaat qilganda, "jon" qo'shimchasini qo'shib, "otajon" yoki "dadajon", yoxud "adajon", yo "oyijon" deb

*murojaat qilinsa, ota-onaga bo‘lgan ehtirom shartlaridan biri ado etilgan bo‘ladi.*

5. Adabiy tilda ota “otamiz”, “padarimiz”, “qiblagohimiz” deb, ona esa “onamiz”, “volidamiz”, “onayizorimiz”, “validayi mehribonimiz”, “oq sut bergen onamiz” kabi so‘z va iboralar bilan tilga olinadi.

6. Ammo “boboy”, “kampir” kabi so‘zlar bolaning beodobligidan nishonadir.





7. Ammo bu murojaat til uchida emas, astoydil bo‘lishi kerak.

8. Ota oila boshi bo‘lgani uchun unga ulug‘vorlikni bildiruvchi sifatlarni, onada bolaga nisbatan mehr ortiqroq bo‘lgani va ko‘proq mashaqqat chekkani uchun unga mehribonlik, mushfiqlik va mehnatu mashaqqat anglatuvchi sifatlar beriladi...

(A. Rustamov)



91. Berilgan matnlarni diqqat bilan o‘qing. Ushbu matnlarning mazmun jihatdan qaysi chizmaga mos kelishini aniqlang va ushbu jadvallarni to‘ldirishga harakat qiling. Agar o‘zingiz mustaqil matn mazmuniga o‘zgartirish kiritishni xohlasangiz, buni amalga oshirishingiz mumkin.

Voqealar ketma-ketligi	Voqealar rivoji
<b>Vaqt chizig‘i</b> 	<b>Zinama-zina</b> 
<b>Muammo va uning yechimi</b> 	<b>Ma’lumot va tasnif</b> 

## Birovning aybi

Bir kishi donishmandning oldiga kelib arz qilibdi:

– Falonchi ko‘pchilik o‘rtasida mening kamchiligidagi aytib izza qildi. Endi undan qanday qilib qasdimni olsam bo‘ladi?

Donishmand unga dedi:

– Agar ko‘pchilik o‘rtasida sening aybingni aytgan bo‘lsa, demak, o‘zining ham aybini ochibdi. Endi sen o‘sha odamlar ichida uning yaxshi sifatlarini aytib maqtagin.

– Nima uchun, axir u meni yomonlagan bo‘lsa, men uni maqtaymanmi?

– Agar sen ham uni yomonlasang, unda o‘sha nodondan nima farqing qoladi? Agar maqtasang, balki qilgan ishidan uyalib, pushaymon bo‘lar.

## Xudoyberdi To‘xtaboyev

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Tarjimayi holimdan lavhalar”ida shunday yozilgan: “Men 1932-yilning 17-dekabrida Farg‘ona viloyatidagi Katta Tagob qishlog‘ida tug‘ilgan ekanman. Otam To‘xtavoy 21 yoshida qulq qilingan bo‘lib, Tojikistonning Chorku degan joyida vafot qilgan. Ikki yildan so‘ng onam Sorabibi xolasi Ashirbibi o‘lib, besh bolasi yetim qolgani sababli, uning eri Usta Qodirga turmushga chiqqan (qarindoshlarning qarori shunday bo‘lgan) ekan.

O‘smirlig davrlarim Ikkinci jahon urushi yillariga to‘g‘ri kelgan. 1949-yili Qo‘qon pedagogika bilim yurtini, 1955-yili Toshkent davlat universitetini (ilgari SAGU deb atalgan) bitirganman.

1958-yili Toshkentga keldim. Avval “Toshkent oqshomi”, so‘ng hozirgi “O‘zbekiston ovozi” gazetalarida hammasi bo‘lib 14 yil ishladim.

14 yil davomida 300 dan ortiq feleton yozdim. Yo‘q, baribir, ularidan ko‘nglim to‘lmadi”.

E’lon qilingan hikoya va to‘plamlari: “Shoshqaloq” (1961), “So‘qmoqlar” (1966), “Muhabbat qo‘shig‘i” (1967), “Jonginam, shartningni ayt” (1969), qissalari: “Sir ochildi” (1961), “Omonboy bilan Davronboy sarguzashti” (1974), romanlari: “Sariq devni minib”

(1968), “Sariq devning o‘limi” (1973), “Besh bolali yigitcha” (1976), “Qasoskorning oltin boshi” (1981), “Yillar va yo‘llar” (1983), “Shirin qovunlar mamlkati” (1986), “Mungli ko‘zlar” (1988), “Jannati odamlar” (1966), “Qiz talashgan o‘smirlar”, “Quyonlar sultanati”, “Qiz bolaga tosh otmang”.

Adib 1972-yili O‘zbekiston Yoshlar tashkilotining mukofoti, 1982- yili “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni, 1989- yili O‘zbekiston Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

<https://saviya.uz>

### Kislород

Kislород. Mendeleyev davriy jadvalining 16-guruhibga mansub kimyoviy modda bo‘lib, O belgisi bilan ifodalanadi.

Tartib raqami – 8.

Kislород – rangsiz, hidsiz va ta’msiz gaz bo‘lib, 1774-yilda ingliz olimi Jozef Pritsli tomonidan kashf qilingan. Kimyogar kislородни simob oksidini qizdirish yo‘li bilan ajratib olgan.

Ko‘pchilik bolalar kislород deganda toza havoni tushunadi. Aslida esa kislород havoning 21 foizini tashkil qiladi, xolos. Havoning qolgan qismi azot va karbonat angidrid gazidan iborat. Shunday bo‘lishiga qaramay, kislород havo tarkibidagi eng muhim moddadir. Kislород bo‘lmasa, Yer yuzida birorta ham tirik jon qolmaydi.

Kislород Yer yuzidan 10 soniyaga g‘oyib bo‘lsa nima bo‘ladi?

- Bir soniya ichida moviy osmon yo‘q bo‘lib qoladi.
- Yer yuzasida katta yoriqlar paydo bo‘ladi.
- Suv parga aylanib qurib ketadi.
- Binolar qumga aylanib to‘kila boshlaydi.

Kislород koinotda eng ko‘p tarqalgan elementlar ichida 3-o‘rinni egallaydi. Yer qobig‘ining deyarli 50 foizi kislорoddan iborat. Sayyoramizdagи o‘simlik, hayvon va odamlar tanasining, eng muhimi, suvning asosiy qismini kislород tashkil qiladi.

Biz nafas olganimizda kislород o‘pkamiz orqali qonga singib ketadi va butun tanamiz bo‘ylab harakatlanadi. Agar havodagi kislород miqdori kamayib ketsa, odam o‘zini yomon his qiladi, boshi aylanib, holsizlanadi. Havoda kislород 7 foizdan kamayib ketsa, odamlar halok bo‘lishi mumkin.

Bu qiziq! Bitta daraxt yil davomida 125 kg kislorod ishlab chiqaradi. Buncha kislorod 2 ta odamning yil davomida nafas olishi uchun yetarli.

(“Jazzi akademik” jurnalidan)

### Arqon uzildi

Bahor... Yonoqlarni mayin shabada silaydi. Daraxtlarning yosh surxlari qiyg‘os gullar ichida – oq zarga botirib olinganday...

Huv anovi do‘nglikdagi maysazorga bir qo‘y bilan echki bog‘lab qo‘yilibdi. Echkining ikki uloqchasi dikir-dikir sakraydi.

Qo‘yning ham qo‘zichasi bor. Uloqchalar bilan yayrab, yugurishib yuribdi. Shunchayam do‘mboqki...

Sakrashgani, yayrashganini ko‘rib, ular bilan birga o‘ynagisi keladi kishining... Bir mahal nimayam bo‘ldi-yu, o‘ynashibmi yo talashibmi, qo‘zichoq uloqcha bilan kalla qo‘yisha ketdi. Ona qo‘y “bo‘ldi, sho‘xlik qilma”, deganday ma’rab qo‘ydi. Qo‘zichoq esa parvo qilmadi. Ona echki ham maysadan boshini ko‘tarmay memeladi. Bolachalar yana hazillarini qo‘yishmadi. Shunda qo‘y cho‘zib ma’radi. Bolasiga intildi. Lekin bo‘ynida arqon – qo‘ymas edi. Qo‘zichoqni ikki uloq o‘rtaga olib, goh unisi, goh bunisi turtar, uni ranjitardi. Ona qo‘y chidab turolmadi. U yer depsinib bolasini “odobsizlar” ozoridan qutqarishga intildi...


Uloqchaning biri qo‘zichoqning biqiniga bexosdan kalla urdi. Qo‘zichoq “Onajon, qutqaring!” degandek qattiq ma’rab yubordi.

Shunda qo‘y arqonni yana zarb bilan siltadi...

Ona mehri arqonni uzdi...

(Tohir Malik)

92. Berilgan matnlarni diqqat bilan o‘qing. Ushbu matnlarning mazmun jihatdan qaysi chizmaga mos kelishini aniqlang va ushbu jadvallarni to‘ldirishga harakat qiling. Agar o‘zingiz mustaqil matn mazmuniga o‘zgartirish kiritishni xohlasangiz, buni amalga oshirishingiz mumkin.



### Teshik chelak xizmati

Qadim zamonda suv tashuvchi bir yigit bo'lgan ekan. U obkashining ikki chetiga ilingan chelaklarda suv tashir ekan. Chelaklardan birining tagi teshik bo'lib, manzilga yetguncha suvning yarmi to'kilib borar ekan. Butun chelak o'z vazifasini to'la-to'kis bajarayotganidan mag'rurlanar, teshik chelak esa ishining yarminigina bajara olayotganidan uyalib, xijolat chekar ekan.

Bir kuni teshik chelak egasiga debdi: "Men sendan uzr so'ramoqchiman, olgan suvingning yarminigina yetkaza olaman". Suv tashuvchi yigit unga javoban: "Seni ko'tarib ketadigan tomonimdagи gullarni ko'rghanmisan? Men ularni ataylab shu tomonga ekkanman. Har safar suv tashiganimda sen ularni sug'orib ketasan. Men necha martalab xotinimga shu gullardan guldstalar sovg'a qilganman. Buning uchun senga rahmat aytaman", – debdi.

<http://muslim.uz>

### Mobil telefonning zarari

Uzoq olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mobil telefonlar hosil qiladigan elektromagnit maydoni inson tanasining quyidagi a'zolariga salbiy ta'sir o'tkazar ekan:

- yurak-qon-tomir faoliyatiga. Elektromagnitdan doimiy ravishda nurlanish aritmiyaga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, u gipertonik kasalliklarga ham sababchi bo‘lishi mumkin ekan;
- endokrin faoliyatga. Mobil telefonlardan chiqayotgan to‘lqin yog‘lar faoliyatini o‘zgartirib yuborarkan. Bu esa gipofiz va buyrak usti bezlariga zarar keltirib, qondagi adrenalin miqdorini ortiqcha qo‘zg‘atib yuborar ekan;
- asab tizimiga. Ushbu qurilma miyadagi to‘qimalarga zarar yetkazadi. Mobil telefon qo‘lidan tushmaydigan odamlarda aqliy qobiliyatning tushib ketganligi va uyqudagи behalovatlik alomatlari kuzatilgan.
- immunitet faoliyatiga.

Tan olib aytish lozimki, bu qurilmalarsiz oddiy kunimizni ham tasavvur eta olmaymiz. Internet, turli aloqalar va hokazolarni o‘zida jamlagan bu qurilma borgan sari ichki dunyomizga kirib bormoqda. Ammo dono xalqimizda bir naql borki, har ishning me’yorida bo‘lishi kerakligini anglatib turadi: “Shakarning ham ozi shirin”.

<http://xabardor.uz>

### Janni Rodari

Janni Rodari 1920-yilning 23-oktabrida Italiya shimolidagi Omenya shahrida hunarmand oilasida tavallud topdi. Jannining bolalik yillari mashaqqatli kechdi. Uning otasi Juzeppe Rodarining kasbi novvoy bo‘lib, Jannining bolaligi, adibning o‘zi ta’kidlaganidek, “olov jizillab turadigan tandir yonida, un va ko‘mir solingan qoplar orasida” kechdi. Jannining otasi nisbatan erta vafot etadi. Tirikchilik og‘irlashgach, ularning oilasi boshqa shaharga ko‘chib ketadi. Janni bolaligida qo‘g‘irchoq yasovchi usta yoki rassom bo‘lishni va boshqa qiziqarli kasblarni egallahni orzu qilgan edi. Biroq kambag‘allik tufayli o‘zi orzu qilmagan diniy maktabga o‘qishga kirishga majbur bo‘ladi. Chunki bu yerda o‘quvchilarga ovqat va kiyim-kechak tekin berilar edi. Shunday bo‘lsa-da, Rodari bu maktabda ikki yildan ortiq o‘qiy olmaydi.

Yosh Janni universitetga o‘qishga kiradi. Ayni vaqtida boshlang‘ich maktabda o‘qituvchilik bilan shug‘ullanadi. Maktabdagi o‘quv jarayoni, bolalar bilan yaqindan muloqotda bo‘lish, ularning fe’l-atvori, qiliqlari, qiziqishlarini chuqur o‘rganish Rodarining bolalar yozuvchisi sifatida shakllanishida jiddiy omil

bo‘ldi deya olamiz. Yosh o‘qituvchi Janni Rodari o‘quvchilari bilan uzoq suhbat qurar, ularning ba’zan javob berish mushkul bo‘lgan xilma-xil savollaridan zavqlanar, bu savollarga javob berish uchun turli xil voqealarni hikoya qilib berardi. J.Rodari bu jarayonda o‘zi ham bilmagan holda kichik ertaklar to‘qir, ularni yosh do‘stlariga aytib berar edi. Keyinchalik u o‘zi to‘qigan ertaklarni qog‘ozga tushira boshlaydi. Ana shu tarzda yozuvchining ilk to‘plami – “Quvnoq she’rlar kitobi” yuzaga keladi. Shundan keyin u Italiyada va boshqa mamlakatlarda mohir ertakchi adib sifatida taniladi. Yozuvchining “Chippolinoning sarguzashtlari”, “Telefonda aytilgan ertaklar”, “Jelsamino yolg‘onchilar mamlakatida”, “Osmondagi tort”, “Televizorga kirib qolgan Jip”, “Rim ertaklari”, “Uchtadan oxiri bor ertaklar” kabi mutoyibaga boy, ta’sirchan hikoyalar turkumi maydonga keldi. Bu asarlarning ko‘pchiligi o‘zbek tilida ham nashr etilgan.

(6-sinf “Adabiyot” darsligi)

### **Tishlaringiz tekismi?**

Tishlarni odamning yarim chiroyi deyishadi. Chunki tabassum qilganda birinchi galda tishlarimiz ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun barcha tishining marvariddek tekis va chiroyli bo‘lishini istaydi. Lekin hamma ham tishlarining qiyshiq o‘sishida ko‘proq o‘zi aybdor ekanini bilmaydi.

Tishlar noto‘g‘ri nafas olish, til bilan tishlarga ko‘p teginish, barmoqni og‘izga solib so‘rish oqibatida qiyshiq o‘sadi.

Tishning to‘g‘ri o‘sishida tilning o‘rni katta. Og‘iz bo‘shlig‘ida tilning o‘z joyi bor. Til tanglayga yopishib, yuqori jag‘ tishlarining orasida turadi. Ammo og‘iz bilan nafas oluvchilarning tili havoga yo‘l berish uchun pastki jag‘dan o‘rin oladi. Til bo‘limgani uchun yuqori jag‘da bo‘shliq paydo bo‘ladi va tishlar istagan tarafga o‘sa boshlaydi. Shuning uchun faqat burun bilan nafas oling. Kechqurun uqlashdan oldin burningizni tozalang. O‘ng tarafga yonboshlab yotishni odat qiling. Sababi yuqoriga qarab yotsangiz, uyqu vaqtida til nafas yo‘lini to‘sadi va ko‘pchilik og‘iz bilan nafas olishga majbur bo‘ladi.

Yana til bilan tishlarni o‘ynab bo‘lmaydi. Sababi til inson tanasidagi eng kuchli mushak hisoblanadi. Tilning kuchi tishlarni qiyshiq qilib qo‘yishga yetadi.

Kichik yoshdagi ayrim bolalar esa qo‘llarini so‘rg‘ich kabi so‘rib yuradilar. Bu ham tishlarni qiyshiq qilib qo‘yadi.


Zamonaviy tibbiyat qiyshiq tishlarni davolashi mumkin. Agar sizning tishlaringiz allaqachon qiyshiq o‘sib qolgan bo‘lsa, otanonangiz bilan shifokorga boring. Faqat unutmang, tishlarni bolalikda davolash osonroq. Yoshi kattalarda qiyshiq tishlarni to‘g‘rilash juda qiyin kechadi.

(“Jazzi akademik” jurnalidan)



**93. Berilgan matnlarni diqqat bilan o‘qing. Ushbu matnlarning mazmun jihatdan qaysi chizmaga mos kelishini aniqlang va ushbu jadvallarni to‘ldirishga harakat qiling. Agar o‘zingiz mustaqil matn mazmuniga o‘zgartirish kiritishni xohlasangiz, buni amalga oshirishingiz mumkin.**

Voqealar ketma-ketligi	Voqealar rivoji
Vaqt chizig‘i	Zinama-zina
Muammo va uning yechimi	Ma’lumot va tavsif



### Kiyik o‘ti

Kiyik o‘tining O‘zbekistonda yetti turi mavjud bo‘lib, ular, asosan, Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanining o‘rmon xo‘jaliklarida, Oqtosh, Soyliqdagi qir-adirlarda o‘sadi.

O‘lkamizni shifobaxsh giyohlar vatani deyishadi. Ushbu giyohlar orasida kiyik o‘tining alohida o‘rni bor. Uning shifobaxshligi haqida Gippokrat va Ibn Sino atroflicha ma’lumot bergenlar.

Xalq tabobatida tomoq og‘riganda, oshqozon buzilganda, ko‘ngil ayniganda, yurak sanchganda, qon bosimi ko‘tarilganda, ichburug‘ va boshqa xastaliklarda iste’mol qilib kelingan. Tog‘lik xalqlarning ziravori, oshko‘ki hisoblangan. Kiyik o‘tidan sabzavotlarni, mevalarni saqlashda foydalanganlar. Qimizga qo‘shilganda, uning ta’mini xushxo‘r qilgan.

Kiyik o‘ti iyun oyida pishadi va o‘rib olib quritiladi.

Kiyik o‘tidan ilmiy tabobatda, attorchilikda, atir-upa sanoatida foydalaniladi. Go‘sht va baliq mahsulotlarini konservalashda ishlatiladi.

(“O‘t-giyohlar va mevalar xosiyati” kitobidan)

### Tansihatlik – tuman boylik

O‘tgan zamonda bir qashshoq odam donishmand cholning oldiga kelib:

– Ota, yejishga nonim, kiyishga kiyimim yo‘q, juda qiyaldim. Nima qilishimni bilmay qoldi. Endi qayerga borib dod desam ekan?  
– debdi.

Chol:

– Sen kambag‘almisan? – desa, u:

- Ha, bola-chaqalarim va o‘zim ochman, kiyim-kechagimiz yo‘q,
- deb nihoyatda zorlanibdi. Chol:
  - Xo‘p, bo‘lmasa menga o‘ng qo‘lingni sot, necha pul beray? – desa haligi yigit:
    - Yo‘q, o‘ng qo‘lim o‘zimga kerak, sotmayman, – debdi.
  - Shunda chol:
  - Bo‘lmasa o‘ng ko‘zingni sot, – debdi.
- Yigit:
  - Nega men o‘ng ko‘zimni sotar ekanman, u menga doimo kerak,
- debdi.

Chol shu tarzda yigitga “tana a’zolarining birma-bir sotgin”, deb aytib chiqibdi. Yigit “yo‘q” javobini qaytaravergach, chol yigitga:

– Ha, butun muchalaring sog‘ bo‘lsa, turmushdan zorlanib nima qilasan? Kishining tani-joni sog‘ligi – tuman boyligi-ku. “Sog‘ tanda – sog‘ aql”, deb bekorga aytmaganlar. Sog‘ bo‘lganingda qanday ish bajarsang ham uddasidan chiqasan. Kuning ham barokatli o‘tadi, – deb javob qaytargan ekan.

(*Ertak*)

### **Yomon maslahat**

Qadim zamonda bir saxiy boy bo‘lgan ekan. Uning uyida bir qancha xizmatkorlari bo‘lib, boy ularga yaxshi haq to‘lar va bayramlarda sovg‘a-salomlar ulashar ekan. Boyning ish yurituvchi bir maslahatchisi bo‘lib, boy unga hammadan ko‘p haq to‘lar ekan. U ishini yaxshi bajarar, lekin hasadchi va ichi qora ekan. Ish yurituvchiga boyning xizmatchilarga katta haq to‘lashi va sovg‘alar ulashishi yoqmas ekan.

Bir kuni u bu ishlarga chek qo‘ymoqchi bo‘lib boyga shunday maslahat beribdi: “Boy ota, mana yoshingiz ham ancha katta bo‘ldi, endi qarilikning g‘amini yeb, ozgina zaxira to‘plab qo‘ysangiz bo‘lar edi. Zaxira uchun mablag‘ni xodimlaringizning maoshi va sovg‘alarini kamaytirish hisobiga chiqaring”.

Boy uning gapini eshitib o‘ylanib qolibdi va javob berib: “To‘g‘ri aytasan, qarilikning zaxirasini tayyorlash payti keldi. Zaxiraga har oyda katta va yaxlit mablag‘ qo‘yaman. O‘sha mablag‘ sening maoshingdir. Maslahating uchun rahmat, bugundan boshlab bo‘shsan”, – debdi.

Ey farzand, bilginki, xalqimiz “Birovga chuqur qazisang, unga o‘zing yiqilasan”, deb bejiz aytmagan. Odamlarning ziyoniga berilgan maslahat hech qachon egasiga yaxshilik keltirmagan.

(“*Tarbiya*” kitobidan)

### **Ohangaronlik kurashchi**

Urushdan so‘nggi og‘ir yo‘qotishlar va tiklanish davrlari edi. Odamlarning turmushi haminqadar o‘tar, ertangi tinch va farovon kunlarga ishonch, umidvorlik ularning qalbini bir lahzaga tark etmasdi. Biz bolakaylar bo‘s sh vaqtlarimizda ko‘pincha kurash tushar, toshotar, chillak, bekinmachoq o‘ynardik. Oramizda Po‘lat o‘rtog‘imiz o‘zining o‘tkir zehni, betakror topqirligi, xushchaqchaqligi, nihoyatda harakatchan, tinib-tinchimasligi, uddaburonligi bilan boshqalardan ajralib turardi.

Po‘lat Jo‘rayev tug‘ma kar-soqovligi tufayli o‘sha paytlarda O‘zbekistonda tashkil etilgan kar-soqovlar jamiyati tasarrufidagi maxsus kasb-hunar maktabida o‘qidi, duradgorlik kasbini egallab, korxonada ishlar, ayni paytda jismoniy tarbiya va sportning eng og‘ir turi bo‘lgan yunon-rim, erkin kurash bilan shug‘ullanardi. Tirishqoqligi sabab u qisqa fursatda sport ustasi unvoni talablarini bajardi, 1968-yili 28 yoshda mamlakat chempioni bo‘ldi, 52 kilogrammgacha vaznda bir necha bor championat oltin nishonlarini qo‘lga kiritdi. 1972-yili Eron, 1974-yili Fransiya, 1978-yili Shvetsiya, 1981-yili Germaniya, 2001-yili Bolgariyada bo‘lib o‘tgan sport musobaqalarida faol qatnashib, oltin medallar sohibi bo‘ldi. 1973-yili Shvetsiyaning Malmyo shahrida kar-soqovlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan XII olimpiada o‘yinlarida qatnashdi.

(“*Gulxan*” jurnalidan)

### **Amir Temur haqida**

Amir Temur siyosat maydoniga kirib kelgan paytda, Movarounnahr mo‘g‘ullar istibdodi ostida bo‘lib, Chingizzon va Botuxon bosib o‘tgan shahar va qishloqlar vayronaga aylangan, suv inshootlari buzib tashlangan yoki ishga yaroqsiz holga keltirilgan, Chingizzon Movarounnahrni o‘zining ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxonga suyurg‘ol sifatida in’om qilgan edi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birinchi davri (1360–1385) Movarounnahrni mo‘g‘ul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, o‘zaro urushlarga barham berish. Ikkinci davri (1386–1405) esa ikki yillik, uch yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan xarakterlanadi.

1360-yillardan boshlab Amir Temur Movarounnahrdagi ichki nizo, urushlarda ishtirok eta boshladi va Mo‘g‘uliston hukmdori Tug‘luq Temurxon, uning o‘g‘li Ilyosxo‘jaga qarshi kurashlardan so‘ng, Amir Husayn ustidan g‘alaba qozongach, 1370-yilda Movarounnahr taxtining haqiqiy sohibi bo‘ldi va Samarqandni hokimiyat poytaxti etib belgiladi.

Amir Temur taxtga o‘tirgach, Chig‘atoy ulusining barcha yerlariga o‘zini voris deb bildi va Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlarni, Toshkent viloyatini, Farg‘ona vodiysini, Xorazmni o‘z hukmronligi ostiga kiritdi. Natijada, Movarounnahr va Xurosonda yirik markazlashgan davlat vujudga keldi. Sohibqiron so‘nggi yillarda Eron, Iroq, Kavkazorti mamlakatlari, Hindiston, Oltin O‘rda va Turkiya bilan bo‘lgan janglarda g‘olib chiqib, sultanat hududini sharqda Xitoy devoriga qadar, g‘arbda – O‘rta yer dengiziga, janubda esa Hindiston chegaralariga qadar kengaytirdi.

<https://saviya.uz>

**K.M.Mavlonova, R.A.Yo‘ldoshev, N.S.Xakimova**

# **MATN TUZILISHIGA DOIR QOIDALAR**

**(5-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv-metodik qo‘llanma)**

“Nodirabegim” nashriyoti

Nashriyot litsenziyasi AI № 313. 2017. 24.11.

Bosishga ruxsat etildi: 2021.30.04.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84  $\frac{1}{16}$

Nashriyot bosma tabog‘i – 5,25. Adadi – 100 nusxa.

100129, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy – 1 “A”.